

ОБРАЗОВАНИЕ

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ
В МИРЕ**

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 46
Часть-12_ Июнь -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Июнь - 2024 год

ЧАСТЬ - 12



ГИПОПИТАРИЗМ

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universitet
Davolash ishi 413-guruh talabalari
Izzatullayev Muxriddin Sirojiddin o'g'li
Toshpo'lotova Durдона Oybek qizi
Baxritdinova Sevinch Zafarovna
Ilmiy raxbar: Baxriyeva Nigora Naimovna
Samarqand O'zbekiston*

Annotatsiya: Gipopituitarizm-bu bir necha yoki barcha gipofiz gormonlarining ishlab chiqarilishining pasayishi bilan bog'liq patologik holat. Sindrom gipofiz bezining nekroz, shish yoki yallig'lanish jarayoni bilan bevosita zararlanishi bilan yuzaga keladi, bundan tashqari, bu Hipotalamus-gipofiz regulyatsiyasi buzilishlarining natijasi bo'lishi mumkin. Gipopituitarizm gipokortizm, Hipogonadizm, hipotiroidizm, metabolik kasalliklar belgilari bilan namoyon bo'ladi. Kasallikning diagnostikasi gipofiz gormonlari, neyroimaging usullari, ichki sekretiya periferik bezlarini o'rganish uchun testlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Gipopituitarizm, buyrak usti bezlari, qalqonsimon bez, jinsiy bezlarning funksiyasining buzilishi.

Ma'qola mazmuni: Gipopituitarizmning klinik ko'rinishi turli xil bo'lib, ishlab chiqarish kamayib borayotgan gormonlar va etishmovchilik darajasiga bog'liq. Bundan tashqari, bemorda kasallik rivojlanadigan yosh katta ahamiyatga ega. Erta bolalik davrida gipopituitarizm paydo bo'lganda, davolanish bo'lmasa, alomatlar yanada aniqroq bo'ladi, chunki gipofiz gormonlari o'sish va jinsiy rivojlanishga ta'sir qiladi. Semptomlarning tezligi kasallikning sababiga bog'liq. Semptomlar jarrohlik yoki keng qon ketishidan bir necha soat o'tgach paydo bo'lishi mumkin va gipofiz bezining o'smalari bilan bir necha oy davomida rivojlanishi mumkin. Kattalardagi somatotropik gormon sekretiya-sining yo'qolishi (kamayishi) bilan klinik ko'rinish kompensatsiya mexanizmlarining ta'siri tufayli juda kam va o'ziga xos emas. Kattalardagi o'sish gormoni (somatotropik gormon) suyaklarning kuchini saqlab qolish uchun mas'uldir, oqsillarni, shu jumladan mushak to'qimalari oqsillarini ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, yog'larning parchalanishida ishtirok etadi, qonda xolesterin miqdorini kamaytiradi. Gipopituitarizmning patogenezining asosi-tropik gormonlar, shu jumladan somatotropik gormon (o'sish gormoni) ning gipofiz bezining yetarli emasligi. Tropik gormonlar yetishmovchiligi pangipopituitarizmning rivojlanishi yoki qisman rivojlanishi bilan to'liq bo'lishi mumkin, unda bir yoki bir nechta gipofiz gormonlari ishlab chiqariladi. Gipofiz bezining funktsiyasi yo'qolishi darajasi lezyonning

joylashgan joyiga va kattaligiga, shuningdek, uni keltirib chiqaradigan jarayonning intensivligiga bog'liq. Gipopituitarizm gipofiz bezining oldingi ning 90% ni va gormonlarning qisman etishmovchiligini --60-70 % bilan mag'lubiyatga uchraganda rivojlanadi. Tropik gormonlar etishmovchiligi tufayli qalqonsimon bez, genital bezlar va adrenal korteksning ikkinchi darajali yetishmovchiligi mavjud. Shu bilan birga, gipopituitarizm qanchalik tez rivojlansa, o'sish gormoni etishmovchiligi belgilari qanchalik aniq bo'ladi. Somatotropik gormon oqsil sintezini rag'batlantirish orqali oqsil almashinuviga ta'sir qiladi. Shuning uchun uning etishmovchiligi kattalardagi bemorlarda skelet mushaklari atrofiyasi va ichki organlarning silliq mushak hujayralariga olib keladi.

Oldini olish: Gipopituitarizmning oldini olish mumkin emas, chunki uning rivojlanishining aksariyat sabablari genetik nuqsonlardir. Olingan tug'ruqdan keyingi gipopituitarizmning oldini olish uchun tug'ruqdagi qon yo'qotishlarini nazorat qilish va uni vaqtda qoplash kerak. Akusherlik yordamini yaxshilash bilan tug'ruqdan keyingi gipopituitarizm hollari kamroq uchraydi. Tiroid gormonlari va kortikosteroidlar bilan davolash ularning etishmovchiligidan kelib chiqadigan dahshatli asoratlardan qochadi. Jinsiy gormonlarni o'z ichiga olgan gormonal preparatlardan foydalanish o'g'il va qizlarda pubertatni boshlaydi. Agar kerak bo'lsa, qizlardagi fertillik va ovulyatsiyani, shuningdek, o'g'il bolalardagi spermatogenezni tiklaydigan turli xil preparatlar buyuriladi. Natijada, reproduktiv funktsiya tiklanadi.

Foydalanilgan adabiotlar:

1. B.X Shagzatova „, Endokrinologiya”
2. S.I Ismailov „, Endokrinologiya”
3. Mark S. *Nyu-York: Thieme Medical Publishers. 7 2010.*
4. Greenberg. „, Neyroxirurgiya bo'yicha qo'llanma.”
5. Bolalar va o'smirlardagi gipopituitarizmni tashxislash va davolash bo'yicha federal klinik ko'rsatmalar // endokrinologiya muammolari. — 2013

QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Jumamuratova Dilfuza

*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Zooinjeneriya fakulteti "Marketing" ta'lim yo'nalishi 3-kurs studenti*

Annotatsiya: Bu maqolada "Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish" mavzusini ko'rib chiqamiz. Ushbu tezisdagi suv resurslarining qishloq xo'jaligida samarali foydalanishining muhimligi va mavjud adabiyotlardan foydalanib, bu masala haqida tahlilni amalga oshiramiz.

Kalit so'zlar: qishloqxo'jaligi, suv resurslari, suv manbalari, dehqonchilik, samarali foydalanish, muhimlik, tahlil.

Suv - Yer yuzasida hayot mavjudligining asosiy shartlaridan biridir. Lekin, hozirgi kunda, tabiatdagi barcha suvlardan bevosita foydalanib bo'lmaydi. Shu bilan birga "suv resurslari" tushunchasini barcha suvlarning sinonimi deb tushunmaslik kerak. Haqiqatan ham bu kategoriya faqatgina tabiatga xos bo'lmay, balki ijtimoiy-tarixiy va iqtisodiy bosqichlarda o'zgarib turadi. Hozirgi taraqqiyot bosqichida suv resurslari tabiatdagi barcha chuchuk va o'rtacha minerallasgan, tabiiy holda yoki sun'iy ravishda chuchuklashtirilgan, tozalangan suvlardan iborat bo'lib, ayni paytda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida ishlatilayotgan va ishlatilishi mumkin bo'lgan suv manbalari yig'indisidir. O'lkamizdagi suv resurslarining asosiy manbalari daryolar, soylar, buloqlar, suv omborlari, ko'llardagi tabiiy toza suvlardan hamda yer ostida joylashgan chuchuk va o'rtacha minerallasgan suvlardan iborat. Bularga qo'shimcha ravishda muz osti va muz ko'llari suvlarini, termal (issiq) yer osti suvlarini, tozalangan (ikkilamchi) suvlarni, oqava suvlarining bir qismini, atmosfera yog'inlarini va tup - roqdagi namlikni kiritish mumkin. Demak, joylashish o'rniga ko'ra yuza suv resurslari bilan yer osti suv resurslari bir-biridan farq qiladi. Lekin, ular o'zaro uzviy bog'langan. Quyida o'lkamizning yuza suv resurslari sifatida oqim hosil bo'lish joyidan kelayotgan suv miqdori tushuniladi va ular daryolarning tog'lardan chiqish joyidagi suv o'lchash postlari ma'lumotlari asosida baholangan. Shu bilan birga o'lkamizda mavjud bo'lgan ko'llar va suv omborlarining suv resurslari, ularning tabiiy va antropogen omillar ta'sirida sarflanishi, suv resurslarini muhofaza qilish masalalari ham yoritiladi. O'rta Osiyoning yuza suvlari resurslari o'lkaning iqlim va orografik xususiyatlariga bog'liq holda g'oyat notekis taqsimlangan. Uning deyarli uchdan ikki qismini egallab yotgan bepoyon tekisliklarida oqar suvlar juda kam uchraydi. Tog'lardan bu yerlarga oqib tushadigan ko'pchilik daryolarga, to ularning quyilish joylariga qadar, bironta ham irmoq kelib qo'shilmaydi. O'lkamiz tog'larida sertarmoq

daryolar, katta-kichik soy va jilg'alar juda ko'p. Tog'larni o'rab olgan tog'oldi tekisliklarida ancha zich bo'lgan sun'iy gidrografik tarmoqlar mavjud. Ular daryolar, soylar va buloqlardan suv olib, tevarak-atrofdagi yerlarga tarqalib ketuvchi irrigatsiya kanallaridan, ariqlardan va shuningdek, zovur hamda kollektorlardan iborat.

Respublikada foydalaniladigan suvning 85 foizi qishloq xo'jaligida ishlatiladi. Dehqonchilikka mo'ljallangan yerlarning 98 foizini sug'oriladigan maydonlar tashkil etadi. Ko'rinib turibdiki, suvdan tejab-tergab, samarali foydalanilmasa, kelgusida suv ta'minotida muammolar kelib chiqishi mumkin. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikda suvning qadri bebahodir. Agar jami iste'mol qilinadigan suvning faqat 15-18 foizi respublikamizda shakllanadigan suv zahiralari orqali qondirilishini, qolgan suv Qirg'iziston, Tojikiston va Qozog'iston davlatlaridan keladigan suv orqali ta'minlanishini e'tiborga olsak mavjud suv zahiralaridan samarali foydalanish zarurligi ayon bo'ladi. Hozirgi vaqtda mintaqa suv xo'jaligi tizimlarida ko'pgina yechilmagan muammolar mavjud. Bu muammolar davlatlararo suv zahiralarini boshqarish, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, suv sifatini yaxshilash, xo'jaliklararo suv taqsimotini takomillashtirish kabilardir. Bu muammolarni yechish - mintaqa suv zahiralarini samarali boshqarish tizimini yaratish, suv tejoychi va muhofaza qiluvchi texnologiyalarni joriy qilishni taqozo etadi. Qishloq xo'jaligida suv resurslarini samarali foydalanish, suv bilan bog'liq muammolar va ularning muhimligini o'rganishga yordam beradi. Samimiylik bilan suv resurslarini isrof etmagan holda, qishloq xo'jaligi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash mumkin. Buning uchun suv resurslarini samarali foydalanishga qaratilgan strategiyalar va qonunlar muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. 2017. PF-4947.
2. Abdug'aniyev A., Sultanov N. Irrigatsiya va meliorasiyaga sarflanadigan investitsiyalarning samaradorligini oshirish//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. - Toshkent, 2012. №1. 39-40-b
3. Gapparov F. Sug'orish tarmoqlari soz bo'lsa suvdan samarali foydalanish mumkin//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -Toshkent, 2014. №11. 13-b.

TOSHKENT KECHA, BUGUN VA ERTAGA

Ochilova Sarvinoz Husan qizi,

ToshDO‘TAU, O‘FF,

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent shahrining tarixi, rivojlanishi va u bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘llar yoritildi.

Kalit so‘zlar. *Choch, Shosh, Chochkent, Shoshkent, Toshkent, kent, Chingizxon, Shayboniyxon, Amir Temur, Chirchiq, Chorsu, Shayxontohur va boshqalar.*

Mamlakatimiz poytaxti bo‘lgan azim Toshkent shahrining bugungi ko‘rinishi yurtdoshlarimiz uchun faxr hissini yanada orttiradi. Undagi zamonaviy turar joylar, hashamatli binolar, sanoqsiz korxonalar, dam olish maskanlari, yoshlar uchun ko‘plab oliygohlar, maktab va maktabgacha ta‘lim muassasalari kabi minglab go‘zal bunyodkorliklar yurtimiz ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turibdi. Biroq bu natijalarga birdan erishilmadi.

Toshkent Markaziy Osiyodagi yirik shaharlardan bo‘lib, ikki ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda Toshkentning Choch, Shosh, Chochkent, Shoshkent kabi nomlar bilan atalgani haqida ma‘lumotlar keltiriladi. “Kent” so‘zi qadimda shahar ma‘nosini bildirgan bo‘lib, Choch, Shosh nomlariga qo‘shib aytilgan va keyinchalik Toshkent nomiga o‘zgarib ketgan. Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Taxminan miloddan avvalgi II asrning oxiri – I asrning boshlarida Xitoy solnomalarida Chirchik vodiysida Yuni viloyatining shahri borligi haqida ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan. Olimlarning fikricha, Yuni shahri hozirgi Toshkent hududida joylashgan bo‘lgan. VI-VII asrlarda Toshkent hududida turkiy hokimlar yashagan. 713-yilda esa bu yerga arablar kirib kelgan. Shundan keyin o‘nlab yillar bu hudud maliklar tomonidan boshqarilgan. 751-yildagi arablar va xitoyliklar o‘rtasidagi jangda Toshkent hududiga katta zarar yetkazildi va bu yerda bitta noyob yodgorlik – Hazrati Imom maqbarasi saqlanib qoldi.

IX-X asrlarga kelib esa Toshkent hududi yana jonlana boshadi. Shahar savdo va hunarmandchilik markaziga aylandi. Bu yerda tepaliklarda joylashgan qal‘a va ichki shahar – shahriston qurilgan bo‘lib, hozir u “Chorsu” eski bozorining markazidir. Qadimgi qal‘a devorining minora qismi Toshkent sirki yonidan yaqin vaqtgacha ko‘rinib turardi. Qal‘aning bitta darvozasi shahar chekkasi – rabotga, boshqasi shahristonga olib borardi. Oxirgisi mustaqil devor sifatida topilib, uchta darvozagga ega bo‘lgan.

1220-yildagi Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar istilosidan keyin xalqlar aralashib ketdi. Bu kurash natijasida XIV asr oxiri-XV asr boshlarida Amir Temur

davlati avval rivojlanib, keyin parchalanib ketdi. 1404-yilda Ulug‘bek ixtiyoriga mulk tarzida berildi. Bu davrda shahar voqa bilan dasht chegarasidagi kuchli qal‘aga aylandi, uning hududi kengaydi, ishlab chiqarish, savdo-sotiq, madaniyat rivojlandi. Registon, Shayxontohur ansamblidagi maqbaralar, Jome masjidi va boshqalar qurildi. Arxeologik topilmalar, me‘moriy obidalar mahalliy an‘analarning qo‘shni Sharq mamlakatlari madaniyati bilan uyg‘unlashib ketganligini ko‘rsatadi. Bu davr yodgorliklaridan Shayxontohur mozori yonidagi inshootlar majmuasi saqlanib qolgan. Ular orasida Yunusxonning maqbarasi bo‘lib, uning ichki qismi o‘ymakor, tosh yarim ustunlar bilan bezatilgan.

XVI asrda Toshkent Shayboniyxon asos solgan davlat tarkibiga kirdi. Toshkent yana obodonlashib, Turkistonning hunarmandlik, savdo-sotiq va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Shahar yangi devor bilan o‘raldi. Me‘morlik obidalari qad ko‘tardi, ularning ayrimlari (Shayx Xovandi Tohur maqbarasi, Ko‘kaldosh madrasasi, Baroqxon madrasasi) bizning davrimizgacha yetib kelgan. Hunarmandlikning taraqqiyoti savdo-sotiq aloqalarining kengayishiga olib keldi. XVI asrning ikkinchi yarmida esa bu yerni buxorolik Abdullaxon bosib oldi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkent to‘rt qismga ajraldi. Shahar hokimlaridan biri Yunus boshqa hokimlarga qarshi kurashga qo‘shiladi va hokimiyatni o‘z qo‘liga oladi. Yunus davrida Toshkent shahri devor bilan o‘ralgan edi, chunki shahar doimo Qo‘qon xonligi bilan kurashga dosh berishga majbur edi. Ammo 1810-yilda Toshkent birinchi bo‘lib Qo‘qon xonligi, keyin 1865-yilda rus qo‘shinlari tomonidan egallab olindi.

1800-yilda Toshkent davlatining chegarasi janubiy va g‘arbdan Sirdaryo bo‘ylab, shimoldan Turkiston va Qoratog‘ yon bag‘irlari orqali o‘tgan. Sharqda Sayram tizmasi va Ugom daryosining o‘ng sohili, janubiy sharqda Chatqol Qurama tog‘ tizmalarini yoqalab Sangir qishlog‘igacha cho‘zilgan. Uning shimoliy va g‘arbiy hududlarida, asosan, chorvador ko‘chmanchi aholi yashagan. 1797-yil ma‘lumotlariga qaraganda, barcha soliq va majburiyatlardan ozod, yer va suv bilan ta‘minlangan 2 ming doimiy qoraqozondan tashqari Yunusxon ixtiyorida 50-70 ming atrofida lashkar bo‘lgan. Maxsus guruhlardan tuzilgan qoraqozon va lashkar navkarlari piltali miltiq, o‘qyoy, qilich va qalqon bilan qurollangan. Yunusxon qo‘shinida 20 ga yaqin to‘p bo‘lgan. O‘qlar asosan, Toshkentning o‘zida O‘qchi mahallasida quyilgan.

Toshkent mahallari haqida ma‘lumotlar qozilik daftarlarida, XIX asrning ikkinchi yarmida esa ruscha nashrlarda qayd etilgan. Unga ko‘ra, 1865-yili Toshkentda 140ta mahalla bo‘lib, unda 76 ming kishi yashagan. Turkiston o‘lkasi statistikasi yilnomasida (1876) Toshkentda 149 ta mahalla (Shayxontohur dahasida 48 ta, Sebzor dahasida 38 ta, Ko‘kcha dahasida 31 ta, Beshyog‘och dahasida 32 ta) bo‘lganligi ta‘kidlangan. N. G. Mallitskiy 1927-yil nashr etgan ro‘yxatda esa Toshkentda 280 ta mahalla va shahar aholisiga tegishli 171 ta mavze nomi bor. Mavzelar, odatda, shaharliklarning shahar

tashqarisida joylashgan ekinzorlari va bog'laridan iborat bo'lgan; sho'rolar davrida mavzelar davlat tomonidan musodara qilinib jamoa xo'jaligiga aylantirilgan.

XX asr boshlarida bu yer butunlay o'zgara boshladi. Toshkent ikki – eski va yangi qismlarga ajraldi. 1940-yilda bu ikki qism birlashtirilib, yangi ixcham hudud vujudga keldi. Shahar obodonlashtirilib, yangi inshootlar barpo etildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonga front atrofidagi ko'plab sanoat korxonalari va ular bilan birga kadrlar ko'chirib keltirilishi tufayli shahar atrofidagi hududlarni yangi ko'chib kelgan aholi o'zlashtirdi. Toshkent viloyati tarkibidagi Toshkent, Kalinin hamda Qorasuv tumanlarida yangi aholi manzilgohlari vujudga keldi. Bu manzilgohdagi aholining asosiy qismi yangi sanoat korxonalari ishchilarini tashkil etgani bois hukumat qarori bilan 1959-yilda bu tumanlarning shahar bilan chegaradosh hududlari shahar tarkibidan o'rin oldi. Shu tariqa, Kalinin, Toshkent, Qorasuv, Orjonikidze tumanlari Toshkent viloyati va Toshkent shahri o'rtasidagi chegara hududlar etib belgilandi.

Urushdan keying yillarda shahar janubga tomon kengayib bordi. 1969-yilda Toshkent viloyatini poytaxtdan hududiy jihatdan ajratish maqsadida shahar atrofida avtomobil halqa yo'li qurilishi shaharning logistika tizimida yangi bosqich bo'ldi. Biroq qurilish jarayonida viloyat tarkibidagi hududlar shaharda va, aksincha, shahar hududiga qarashli yer maydonlari viloyatda qolib ketgan edi. Bu keyingi yillarda shahar hududining o'zgarishida noqulayliklar keltirib chiqardi.

Mustaqillikdan keyin Toshkent tarkibiga kiritilgan bir qancha tumanlar nomi almashtirildi. 1992-yilda Oktabr tumani o'zining qadimiy nomi – Shayxontohurga, Kirov Yunusobodga, Kuybishev Mirzo Ulug'bekka, Frunze Yakkasaroyga, Lenin Mirobodga o'zgartirildi. Bundan tashqari, 2005-yilda Toshkent shahridagi Akmal Ikromov tumani tarixiy Uchtepa nomini oldi; 2010-yilda Sobir Rahimov tumani Olmazor sifatida qayta tashkil etildi; 2014-yilda Hamza tumani Yashnobod tarzida qayta tuzildi. Bu davrda Toshkentda yangi qurilish ishlari olib borildi. Bir qator me'moriy obidalar qayta tiklandi. Bu esa mamlakatimizda tarix jonlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Bugun Toshkentda chet el vakillarini har qadamda uchratasiz. Bu ham yuqorida tilga olingan ishlarning amaliy natijasini ko'rsatadi. Yosh avlod uchun yaratilayotgan imkoniyatlar kelajakning go'zal bo'lishiga zamin yaratadi. Biz yoshlar esa bu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, yurtimiz rivojiga o'z hissamizni qo'shamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://uzbekistan.travel/uz/o/toshkent-tarixi/>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Toshkent_tarixi
3. <https://daryo.uz/2020/09/04/toshkentning-yangi-hayoti-poytaxtning-hududiy-tuzilishi-oxirgi-100-yilda-qanday-ozgarib-bordi>

XORAZMIYNING “MUHABBATNOMA” ASARIDAGI MATNLAR TIL XUSUSIYATLARINING HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI BILAN QIYOSIY TAHLILI

*Ochilova Sarvinoz Husan qizi,
ToshDO‘TAU, O‘FF,
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Maqolada Xorazmiy va uning “Muhabbatnoma” asari haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqolada asar ichidan bir g‘azal tanlab olinadi hamda ushbu g‘azal fonetik va morfologik jihatdan tahlil qilinadi. Qilingan tahlil natijalari hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi va ushbu davr qoidalari bilan qiyosiy tarzda o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: noma, fonetika, leksika morfolgiya, singlarmonizm

Абстрактный. В статье рассказывается о Хоразми и его произведении «Мухаббатнама». В данной статье из произведения выбрана одна газель и проанализирована фонетически и морфологически. Результаты анализа рассматриваются с точки зрения современного узбекского литературного языка и изучаются в сравнительном ключе с правилами этого периода.

Ключевые слова: нома, фонетика, лексическая морфология, сингармонизм.

Abstract. The article talks about Khorazmi and his work "Muhabbatnama". In this article, one ghazal is selected from the work and this ghazal is analyzed phonetically and morphologically. The results of the analysis are considered from the point of view of the current Uzbek literary language and studied in a comparative way with the rules of this period.

Key words: noma, phonetics, lexical morphology, synharmonism

“Muhabbatnoma” asari muallifi, Xorazmiy, XIV asrda yashab, turkiy va forsiy tilda ijod etgan shoir hisoblanadi. Xorazmiydan bizgacha u qadar ko‘p ma‘lumot va asarlar yetib kelmagan, biroq uning “Muhabbatnoma” asari turkiy xalqlar uchun qadrlı manbalardan hisoblanadi. Shoirning tarjimai holi haqida ham aynan mana shu asar orqali tanishmiz. Bu asar Oltin O‘rda xoni Jonibekxonning Sirdaryo muzofotidagi hukmdorlaridan biri Muhammad Xojabek iltimosiga binoan yozilgan. U noma janrida bitilgan. Noma – o‘zbek mumtoz adabiyotining janriy ko‘rinishlaridan biri. U “xat, maktub” degan ma‘nolarni anglatadi va bu janrdagi asarlar boshdan oyoq kimgadir maktub shaklida bitiladi. Xorazmiyning bu asari ham o‘zbek mumtoz adabiyotidagi

noma janrining ilk yorqin namunasi hisoblanadi. Asar ichida g‘azal, qit‘a, fard kabi kichik lirik janrlar ham uchraydi.

Xorazmiyning nomanavislik an‘anasini adabiyotimizda Xo‘jandiy «Latofatnoma»si, Yusuf Amiriy «Dahnoma»si, Said Ahmad «Taashshuqnoma»si, Sayyid Qosimiy «Haqiqatnoma»si va «Sadoqatnoma»si bilan davom ettirdi. «Noma» so‘zini asar nomiga tirkash bu janrga taalluqli bo‘lmagan boshqa asarlarda ham uchraydi. Masalan, Salohiddin Toshkandiyning «Temurnoma», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», uning nevarasi Gulbadanbegimning «Humoyunnoma» asarlari nomlarida «noma» so‘zi ham qo‘llangani bilan ular noma emas, sarlavhada qayd etilgan shaxs hayoti bilan bog‘liq tarixiy asar ma‘nosini anglatadi.

«Muhabbatnoma»ning ikki nusxasi bizgacha etib kelgan: 1. Milodiy 1432-yili Yazd shahrida Mir Jaloliddin degan kishi taklifi bilan Boqi Mansur degan xattot uyg‘ur yozuvida ko‘chirgan nusxa. Bu matnda ayrim qisqarishlar uchraydi. 2. Milodiy 1508-1509-yillarda arab yozuvi asosidagi turkiy alifboda ko‘chirilgan nusxa. Bu nisbatan to‘laroq — jami 473 baytdan iborat. Asarning ikkala nusxasi ham Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi.

Asar o‘n bir nomadan tashkil topgan bo‘lib, zullisonaynlik (ikki tilda ijod qilish) qoidasiga oxirigacha amal qilingan. Ya‘ni mavjud o‘n bir nomadan ikkitasi — to‘rtinchi, sakkizinchi nomalar, asar tuzilishiga asosan ulardan keyingi masnaviy, shuningdek, dastlabki g‘azal forsiy tilda bitilgan.

“Muhabbatnoma” asarining tili xalq tiliga ancha yaqin va uslubi ravon, uning yaratilganiga necha asrlar o‘tganligiga qaramay hozir ham uni o‘qib tushunish mumkin. Asar tilidagi ko‘pgina so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llaniladi. Bunday so‘zlar jumlasiga umumturkiy tun, oy, ko‘ngul (ko‘ngil), til, eshik, suv, kishi, arslon, ov, tong kabi; forsiy parda, baxt, jamol, husn, chehra, dard, dilbar kabi; arabiy ishq, g‘azal, qibla, muhabbat, vafo, umr, mehnat, fотиha, saodat kabilarni aytib o‘tish mumkin. “Muhabbatnoma” asarida qadimgi turkiy so‘zlardan ochun (dunyo, olam), qamuq (hamma, barcha, jami), dag‘i (yana, tag‘in), ev (uy, xona), uchmoq (jannat), qamuq (do‘zax, jahannam) kabilar qo‘llangan. Biroq bu kabi izohtalab qadimgi turkiy so‘zlarning miqdori ko‘p emas. Asar tilida joy nomlari – toponimlardan Kashmir, Saroy, Chin-Mochin, Sir, Misr, Iroq, Rum kabilar uchraydi. Hozir Sirdaryo deb ataladigan daryo nomi asarda Sir deb berilgan. Xorazmiy asarida ma‘nodosh so‘zlardan mahorat bilan foydalangan. U umumturkiy ko‘rk va forsiy husn, arabiy jamol va forsiy chehra, arabiy saodat va forsiy baxt so‘zlarini ma‘nodosh so‘zlar sifatida qo‘llab, asarining ta‘sirchanligini oshirgan. Shoir diniy sig‘inish va e‘tiqod qilishning ob‘ekti sifatida namoyon bo‘ladigan ilohiy kuchni arabiy Haq, forsiy Xudo, Yazdon va umumturkiy Tangri, Yaratuvchi kabi sinonim so‘zlar bilan atagan. Asarda ayrim so‘zlar ko‘chma ma‘nolari bilan sinonimik munosabatda qo‘llangan. Masalan,

arabiy davlat so‘zi ko‘chma ma’nosida forsiy baxt so‘zi bilan sinonim sifatida qo‘llangan.¹

Asar tilini tushunish o‘quvchiga u qadar qiyinchilik tug‘dirmaydi, biroq yuqorida ko‘rganimiz kabi undagi fonetik, leksik va grammatik jihatlarida hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan farqlanadigan ba’zi holatlar bor. Bunga asar matnidan bir g‘azalni olib fonetik va morfologik tahlil qilish orqali yanada oydinlik kiritamiz.

G‘AZAL

Yaratqonkim, tan ichra jon yaratti,
Seni ko‘rkluklar uzra xon yaratti.
Quyosh yanglig‘ yuzungizni yorutti,
Falakdek bizni sargardon yaratti.
Xaloyiq qiblası bo‘ldı jamoling,
O‘shal kunkim seni Yazdon yaratti.
To‘lin oy ta‘biya sarv uzra qildi,
Meni ul surata hayron yaratti.
Eshitting ersa Yusufning jamolin,
Seni husn ichra sad chandon yaratti.
Karim Tengri kamolin qılsa izhor,
Sen oynı bo‘yla benuqson yaratti.
Zıhi qodirkim ul bir qatra suvni
Muhabbat gavharinga kon yaratti.
Azalda qildi Xorazmiynı muhtoj,
Tag‘ı manzurını sulton yaratti.

Tahlil uchun asardagi ushbu g‘azal tanlab olindi va endi bu g‘azaldagi til xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Fonetik xususiyatlar: “**yaratti, yorutti**” so‘zlarida oxirgi bo‘g‘ında ishtirok etgan **-t** jarangsiz undoshi o‘zidan keyingi kelgan **-di** qo‘shimchasini **-ti** shakliga o‘zgartirib olgan. “**seni**” so‘zida esa **-ni** tushum kelishigi shaklining asosga qo‘shilishi bilan qo‘shimcha tarkibida n undosh tovushining tushishi kuzatiladi. Bu tahlil hozirgi o‘zbek adabiy tili qoidalari yuzasidan amalga oshirildi, ammo bu asar tasvirlangan davrda singarmonizm, ya’ni, tovushlar moslashuviga qat’iy amal qilingan va o‘tgan zamonni bildiruvchi **-ti**, tushum kelishigini ifodalovchi **-i** qo‘shimchalari amalda bo‘lgan.

Morfologik xususiyatlar: “**Yaratqonkim**” bu so‘zdagi **-qon** qo‘shimchasi bugungi **-gan** qo‘shimchasi bilan mos keladi. “**Ko‘rkluklar**” bu yerdadi **-luk** sifat yasovchi qo‘shimcha hozir **-lik** shaklida ishlatiladi. Bu qo‘shimchaning bugun **-lik** shakliga almashishi tilimizda singarmonizm hodisasining sustlashuvi bilan asoslanadi.

¹ Saidov Y.S, Sayfullayeva R.R. Eski o‘zbek tili yodnomalari tili va uslubi

Yuqorida keltirilgan **-ti** o'tgan zamon qo'shimchasi bugun **-di** shakliga aylangani bilan farq qiladi: **“eshitting”** – eshitding . G'azaldagi **“jamolin”**, **“kamolin”**, **“gavharin”** so'zlaridagi **-n** tovushi tushum kelishigini bildirgan bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilida bu kelishik **-ni** shaklida qo'llaniladi. **“Surata”** so'zidagi **-a** jo'nalish kelishigi qo'shimchasi bugun bizning shevalarimizda saqlanib qolgan, ammo hozirgi o'zbek adabiy tilida bu kelishik **-ga** shaklida ifodalanadi. So'z turkumlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu g'azalda olmosh so'z turkumiga mansub bo'lgan **men, sen, biz, o'shal, ul** kabi so'zlar qo'llanilgan va bular orasidan ul, o'shal kabi ko'rsatish olmoshlarining bugun **u, o'sha** singari variantlari ishlatiladi. Yordamchi so'z turkumlaridan: **uzra, yanglig', bo'yla** singari so'zlar qo'llanilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu asar fonetikasi va morfologiyasi hozirgi o'zbek adabiy tili fonetikasi hamda morfologiyasi bilan u qadar tushunib bo'lmas darajada farq qilmaydi. Asarda qo'llanilgan qo'shimchalarning bugun boshqacha tus olishi davrlar va shu vaqt mobaynida xalqimizga boshqa xalqlarning iqtisodiy va siyosiy ta'sirlarida yuzaga kelgan. Buni tilimizda singarmonizm hodisasining yo'qolib borayotganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saidov Y.S, Sayfullayeva R.R. Eski o'zbek tili yodnomalari tili va uslubi
 - 2.UmidBekmuhammad.Xorazmiy.
- Muhabbatnoma//<http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/151>

MULLA RUSTAMBEK IBN YUSUFBEK HOJINING “TA’LIMI AVVAL” KITOBINI TAHLILI

Ochilova Sarvinoz Husan qizi

ToshDO‘TAU, O‘FF,

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mulla Rustambek ibn Yusufbek Hojining “Ta’limi avval” kitobi tahlil qilindi. Darslik tahliliga kirishdan oldin u yaratilgan ijtimoiy va adabiy muhit haqida ma’lumotlar berildi. Muallif hayoti haqida qisqacha tanishtirildi. Kitobning qay tartibda tuzilgani haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun uning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy toshbosma asarlar fondida 18828, 419, 450 raqamlari ostida saqlanuvchi toshbosma nusxalaridan parchalar keltirildi.

Kalit so‘zlar: Jadid, jadidchilik, darslik, taraqqiyparvarlar, alifbe, “Ustodi avval”, “Adibi avval”, “Birinchi muallim”, “Savod”, “Ta’limi avval”, “Birinchi yil”, “Rahbari avval”, “O‘rtoq”, “Sovg‘a”, “Kattalarga o‘qush”, “O‘qituvchi”.

Абстрактный. В данной статье анализируется книга муллы Рустамбека ибн Юсуфбека Хаджи “Образование прежде всего”. Прежде чем приступить к анализу школы, были даны сведения о социальной и литературной среде, в которой она создавалась. Кратко рассказывает о жизни автора. Чтобы иметь четкое представление о порядке составления книги, выдержки из ее литографических копий хранятся в фонде основных литографических произведений Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни под номерами 18828, 419. было представлено 450.

Ключевые слова: Джадид, джадидчилик, учебник, прогрессивы, алфавит, “Сначала мастер”, “Сначала Адиби”, “Первый учитель”, “Грамотность”, “Образование прежде всего”, “Первокурсник”, “Сначала лидер”, “Товарищ”, “Подарок”, “Читать взрослым”, “Учитель”.

Abstract. This article analyzes the book “Education first” by Mulla Rustambek ibn Yusufbek Haji. Before starting the analysis of the school, information was given about the social and literary environment in which it was created. Briefly introduced about the life of the author. In order to have a clear idea of the order in which the book was compiled, excerpts from its lithographic copies kept in the fund of the main lithographic works of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni under the numbers 18828, 419, 450 were presented.

Keywords: Jadid, jadidilik, textbook, progressives, alphabet, “Master first”, “Adibi first”, “First teacher”, “Literacy”, “Education first”, “First year”, “Leader first”, “Comrade”, “Gift”, “Read to adults”, “Teacher”.

Jadidchilik yoki **jadidizm** (arabcha: جديد jadīd — yangi) — XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O‘rta Osiyoda tarqaldi.

Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g‘oyalarini targ‘ib qilishgan.

Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka “burjua-liberal, millatchilik harakati” deb ta’rif berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSR parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi.

Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil Gaspirali rahbarligida qrim tatarlar o‘rtasida vujudga kelgan.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyaning mustahkam o‘rnashib olishi kuzatiladi. U o‘z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo‘g‘irchoqqa aylantirib, rus va g‘arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko‘zlaydi. Ayni chog‘da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo‘yildi, diniy e’tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo‘lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo‘rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo‘yniga xoch taqtirishgacha borildi. O‘sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o‘g‘li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o‘z „Xitobnoma“si(1898)da yaxshi bayon qilgan.

Millat istiqbolini o'ylvchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari—hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar, dastlab, chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish — siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi:

- Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish
- shariatni isloh qilish
- xalqqa ma'rifat tarqatish
- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash
- Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament
- keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish
- barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.

Toshkent, Farg'ona, Buxoro va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlaridan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

1904–1905-yillardagi rus-yapon urushi, 1905–1907-yillarda bo'lgan birinchi rus inqilobi 1905–1911-yillardagi Eron inqilobi, 1908-yil Turkiyada bo'lgan Yosh turklar inqilobi jadidlar dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Jadidlar o'z gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida to'planishar edi. Ularning ko'pchiligi shu davrning ko'zga ko'ringan ijodkorlari, shoir-u yozuvchilar edi. Ular o'z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyot davr voqealariga hamohang bordi. 1910-yillardayoq ma'rifat va ozodlik g'oyalari uning markaziy mavzusiga aylandi. Adabiyotga „millat“ va „vatan“ tushunchalari kirib keldi. Milliy she'rlarga rag'bat kuchaydi. Yangi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi, publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Mirmuhsin) rivojlandi, realistic proza shakllandi. Shuning

uchun ham bu davr adabiyoti O‘zbekiston mustaqilligidan keyin milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti deb davrlashtirildi.¹

Mulla Rustambek ibn Yusufbek Hoji ham jadidlar harakatida ishtirok etadi. U yaratgan darsliklar o‘z davri ilm oluvchilari uchun qimmatli bo‘lib, darslikning ikkita tahririda ikki davr ijtimoiy hayotidan kelib chiqqan holda mavzular rejalashtiriladi. Bu darsliklardan maktab bolalarining ilk savodlarini chiqarishda foydalaniladi.

Alifbolar haqida

Alifbe — dastlabki savod beradigan o‘quv qo‘llanmasi. Alifbe bosma, yozma harflar va ular ifodalaydigan nutq tovushlari, ularning yozilishini o‘zlashtirish, sodda bo‘g‘in va so‘zlarni qo‘shib o‘qishga o‘rganish va o‘qilayotgan narsani to‘g‘ri tushunish hamda sodda so‘z va gaplarni yozishga o‘rganishga yordam beradi. Maktabxonalarda aflifbe bo‘lmagan. Uning o‘rniga savod o‘rganish uchun maxsus taxta qo‘llanilgan. Taxtaning bir tomoniga tartib bilan arab harflari, ikkinchi tomoniga esa abjad yozilgan. Talabalar harflarni batamom yod olgandan so‘ng abjadxonlikka va haftiyakxonlikka o‘tar edilar. Bu usul asosan 1900-yilgacha davom etgan. Turkiston sarus-tuzem maktablarining hamda yangi usuldagi maktablarning paydo bo‘lishi bilan alifbe darsligi yuzaga keldi. 1902-yilda rus-tuzem maktablarining o‘zbek sinflari uchun birinchi o‘zbek alifbesi — “Ustodi avval” nashr etildi. Bu alifbening muallifi Saidrasul Saidazizov. Kitob 1917-yilgacha 17-marta nashr etilgan. Shu yillarda Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval” (o‘zbek maktablari uchun birinchi alifbe), Mulla Rustambek ibn Yusufbekning “Ta’limi avval”, P. Bidanovning “Sullami avval”, A. Avloniyning “Birinchi muallim”, A. Ibodiyevning “Tahsil ul-alifbo”, M. Faxriddinovning “Rahbari avval” kabi alifbelar nashr qilingan. Keyinchalik Shokirjon Rahimiy yaratgan “Sovg‘a” darsligi nashr qilingan. Shuningdek, M. Qodirov va boshqalarning “Kattalarga o‘qish” (1920), F. Erg‘oziyev va A. Yo‘ldoshevning “Alifbe” (1936) kitoblari bosilib chiqqan. 1938-yildan Oqilxon Sharofiddinov tuzgan alifbe nashr qilindi; mazkur alifbe Q. Abdullayeva hammuallifligida qayta ishlanib nashr etildi va o‘zbek maktablarida o‘quv qo‘llanmasi vazifasini bajardi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy qilish to‘g‘risida” Qonuni qabul qilingach, bir qancha alifbelar tayyorlandi. Xususan, 1996-97 yillarda Oqilxon Sharafiddinov, Q. Abdullayeva va boshqalarning “Alifbe” (“Shodlik”), T. G‘afforova, E. Shodmonov, R. Eshturdiyevaning “Alifbe” (“Savod”), katta yoshdagilar uchun Y. Abdullayevning “Hamrohimi”, “Sovg‘a”, Y. Abdullayev, Sh. Yo‘ldoshevaning “Yangi alifbo va imlo” o‘quv qo‘llanmalari chop etildi. Turkistonda bolalar uchun yaratilgan alifbolar haqida Hoji Muin shunday deydi:

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>

Turkistonda ilmiy-adabiy uygʻonishning boshlanishigʻa yigirma besh yil toʻlib oʻtdi. Bu muddatning oʻktabr inqilobigʻacha boʻlgʻon davrida har bir shaharda yangi maktablar, baʻzi joylarda jamiyati xayriya va kutubxonalar ochiddi. Turli maktab va mutolaa kitoblari yozilib bosildi.

1901nchi yildan eʻtiboran Koʻqon va Toshkantda, 1903nchi yidda Samarqandda yangi maktablar ochila boshladi. Bu maktablar Turkistonning katgarak shaharlarida son jihatidan (taqlidiy suratda) bir daraja koʻpaygan boʻlsa ham, 4-5 yildan keyin yana kamayib, faqat baʻzi tuzuklari davom etdi. Buning bir sababi kitobsizlik boʻlsa, boshqa sababi oʻqitgʻuvchilarning usuli taʼlimdan xabarsizliklari edi. Avvalgi yillarda baʻzi muallimlar oʻz maktablariga totorcha kitoblarni kiritishga va bir qismlari turkcha-totorcha asarlardan tarjima yoʻli bilan foydalanib bolalarni oʻqutishgʻa majbur boʻldilar. Hatto, baʻzi maktablar muallimlari kitob yoʻqdigʻidan oʻz shogirdlarigʻa “Chor kitob”, “Mantiq ut-tayr”, “Xoʻja Hofiz” va Navoiydek eski kitoblarni oʻqutib yurdilar. Usuli jadid maktablari shu hol bilan 5-6 yil davom qilgʻondan keyin yangi oʻzbekcha kitoblarni koʻra boshladi. Shuning bilan barobar maktablarning adadi ham yana koʻpaya berdi.

Men bu maqolamda uygʻonish davrimizning boshidan bu kungacha chiqqan oʻzbekcha alifbolarning tarixidan va ularning xizmatlaridan yozmoqchi boʻlaman.

1. “Ustodi avval”

Turkistonda boshlab chiqqan oʻzbekcha alifbo toshkantlik Sayidrasulxoʻjaning 1900nchi yidtsa yozib bostirgon “Ustodi avval” ismli risolasidir. Bu alifbo ruskiy-tuzemniy maktablar uchun tuzilgan boʻlsa ham, baʻzi muallimlar kitob yoʻqdigʻidan shuni vaqtincha oʻz maktablariga kiritdilar. Lekin koʻp vaqt oʻtmadi. Bu alifbo toʻgʻrisida janjal chiqtsi. Qozonli Ahmadhodi Maqsudiy: “Menim “Muallimi avval” ismli alifbomdan oʻgʻurlagon”, — deb Sayidrasulxoʻjani sudgʻa tortdi. Bu kishi esa darrov alifbosining qolgʻon nusxalarini terib olib uni qaytadan oʻzgartib bostirdi. Sud bir necha martaba mudofaa uchun vaqt belgilab Ahmadhodini chaqirgʻon boʻlsa-da, u kelmagani uchun mudofaa kechikib qolib, oxiri Sayidrasulxoʻja javobgarlikdan qutuldi. Olgʻon maʼlumotimizga koʻra, “Ustodi avval” alifbosi oʻktabr inqilobigʻacha oʻn yetti qatla bosilgʻon.

2. “Adibi avval”

1901nchi yillarda Toshkantda Munavvarqori tomonidan “Adibi avval” otli alifbo yozilgʻon boʻlsa-da, buning birinchi bosmasi 1907nchi yilda chiqdi. Bu alifbo Turkistondagi usuli jadid maktablarning koʻpisi tomonidan (baʻzi ruskiy-tuzemniy maktablarga ham) qabul qilinib, dars jadvaliga kirgizilganligi uchun oʻktabr inqilobigʻacha tuzatilib oʻn dafʻa bosiddi. Soʻnggʻi bosmalari rasmi boʻlib chiqdi.

3. “Birinci muallim”

Bu alifbo 1912nchi yidda Abdulla Avloniy tomonidan yozilib, Toshkantda “Maktab” kutubxonasining xarji bilan bosildi. O‘ktabr o‘zgarishigacha 4-5 qatla bosilib chiqdi.

4. “Savod”

Bu alifboning yozg‘uvchisi bir necha yil Xivada muallim bo‘lg‘on Muxtor Bakirdir. Alifbo o‘zbekcha-totorcha-turkmancha aralash shevada yozilib, 1913nchi yilda Qozonda bosilg‘on. Bu faqat Turkmaniston maktablarida o‘qutilg‘on bo‘lsa kerak. 2nchi bosmasini ko‘rmadik.

5. “Ta’limi avval”

Buning yozib bosdirg‘uvchisi Toshkantda Rustambek Yusuf o‘g‘lidir. Bu alifboning faqat 1914nchi yilda chiqqon 2nchi bosmasini ko‘rdik. Buning birinchi bosmasi taxminan 12nchi yillarda chiqqon bo‘lsa kerak.

6. “Turkiy alifbo”

Turkistonda uyg‘onish davrida chiqqon alifbolarning yaxshiroqlaridan biri shu “Turkiy alifbo”dir. Bu alifbo 1916nchi yilda muallim Muhammadjon Abdulxoliq o‘g‘li tomonidan yozilib, Qo‘qonda “G‘ayrat” kutubxonasining masorifi bilan bosiddi. Alifbo rasmlidir. Buning ham ikkinchi bosmasini ko‘rmadik.

7. “Birinci yil”

Bu alifboning tuzguvchisi Samarqandda Sayidrizo Alizoda bo‘lib, noshiri “Zarafshon” kutubxonasidir. 96 betdan iborat bo‘lg‘on bu alifbo 1917nchi yilda faqat bir marta bosilg‘on.

8. “Miftoh ul-alifbo”

9. “Miftoh ul-avval”

10. “Tashili alifbo”

12-14nchi yillar oralarida Farg‘onada bosilib chiqqan bu uch xil alifboni eshitgan bo‘lsak ham ko‘rmadik. Bulardan birinchisining murattibi Mirza Xayrulladir. Oxirg‘isini Abdulvahob Ibodiy yozg‘on.

Turkistonda o‘ktabr inqilobig‘acha chiqqan o‘zbekcha alifbolar shudir. Bulardan ko‘pisi bir-biriga taqlid qilib yozilg‘on. Bir oz tuzukraklari “Adibi avval”, “Turkiy alifbo” va “Birinci yil” risolalaridir.

O‘ktabr inqilobidan keyin chiqqan alifbolar:

11. “Rahbari avval”

Bu alifbo 1918nchi yilda Toshkantda faqat bir marta-ba bosildi. Tuzguvchisi M. Faxriddin, noshiri “Hurriyat” qutubxonasidir.

12. “O‘rtoq”

Samarqandda 18nchi yidda maorif mudiri bo‘lib turg‘on Checha Vichkinning va mustashriq Viyatkinning qalami bilan yozilg‘on bu alifbo yigirma ming dona bosilg‘on

bo'lsa ham, maktablarimiz undan bir pullik foyda ko'rolmadi. Chunki bu risola tanqidg'a arzimayturg'on darajada buzuc va tartibsiz yozilg'on edi.

13. "Sovg'a"

Shokirjon Rahimiy tomonidan tuzilib, 1919nchi yilda Turkiston jumhuriyatining maorif komissarligi xarji bilan bosilg'on bu rasmi alifbo har bir daf'a bosilishida tuzatilib, bu kunlarda 5nchi qatla bosilib chiqdi.

14. "Kattalarga o'qush"

1920nchi yilda "Davlat nashriyoti" tomonidan ko'b miqdorda bosilg'on bu alifboning murattiblari: M. Qodiriy, I. Mo'miniy va Sh. Ismoiliy o'rtoqlardir. Bu alifbo birinchi daf'a Amriqo usulida yozilg'onlig'i uchun bunday usuddan xabarsiz muallimlarimiz undan keragicha foydalana olmadilar. O'qutishg'a qiynaldilar. Shuning uchun bu to'g'ridagi qancha mehnat va masoriflar bo'shg'a ketdi.

15. "Til ochg'ich"

Bu rasmi alifboning murattibi muallim Hasanali, noshiri Buxoro maorif nazoratidir. Risola 1922nchi yilda besh ming dona bosiddi.

16. "O'zbek alifbosi"

Shokirjon Rahimiy tomonidan yozilg'on bu rasmi alifbo "Davlat nashriyoti" tarafidan 1922nchi yilda faqat bir martaba 25 ming dona bosildi.

17. "Kattalar yo'ldoshi"

Savodsiz katta kishilar uchun 24nchi yilda "markaz savodsizliqni bitiruv favqulodda komissiyasi" tomonidan 15 ming dona bosilg'on bu alifboning tuzguvchisi Shokirjon Rahimiydir. "Kattalar yo'ldoshi" ikki yil ichida tuzatilib, to'rt daf'a bosilib chiqdi.

18. "O'qutg'uvchi"

Kattalar uchun Amriqo usulida yozilg'on bu rasmi alifboni(ng) tuzg'uvchilari Hoji Muin bilan I. Rahmatullazoda, noshiri "Savodsizliqni yo'qotish favqulodda komissiya"dir. Bu alifbo 25nchi yil oxirlarida birinchi daf'a 45 ming dona bosiddi. Risola eskirak huruf bilan bosilg'on, matbaa xatosi ham oz emas.

Mana, 25 yil ichida bosilib chiqqan alifbolarimiz (manim bilganimcha) shulardan iboratdir. Shu muddatda Turkistonda bosilg'on forscha-tojikcha alifbolarni kelgusi maqolada yozarmiz.

"Maorif va o'qutg'uvchi" jurnali, 1926 yil, 2-son²

Mulla Rustambek Yusufbek o'g'li

"Ta'limi avval" kitobi Mulla Rustambek Yusufbek o'g'li tarafidan yozilgan bolalarning ilk savodlariga bag'ishlangan maktab darsligi hisoblanadi. Rustambek Yusufbekov 1880-yil Toshkentda tug'ilgan. Rustambek domla pedagog, o'zbek ma'rifatparvari bo'lgan. Dastlab, maktabxonada keyin Toshkentdagi Ko'kaldosh

² https://m.wikisource.org/wiki/O%E2%80%98zbekcha_alifbolar_tarixi

madrasahida o'qigan. 1910-yilda maktab ochib, unda o'qituvchilik qilgan. "Ta'limi avval" ("Dastlabki ta'lim") alifbe kitobini (1913), "Ta'limi soniy" ("Ikkinchi ta'lim") o'qish kitobni (1915) yozgan. U Siddiqiy Ajziy, Karimbek Kamiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Abdulla Avloniy, So'fizoda Muhammadsharif, Hoji Muin, Tavallo, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Saidahmad Vasliy Samarqandiy, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon kabi jadidlar bilan bir davrda hayot kechirar ekan, bu muhit, albatta, uni ham chetlab o'tmadi. Buni muallif kitobining bir necha yildan keyingi qayta tahririda kiritgan o'zgartirishlaridan ham bilishimiz mumkin. Adibning "Ta'limi avval" darsligining ilk sonida ko'proq diniy mavzular yoritiladi. Mavzular ham keyingi tahrirga nisbatan biroz tushunilishi qiyinroq. 1915-yilda chiqqan yangi tahrirdagi bu darslik avvalgisiga qaraganda ancha mukammalroq, mavzular tushunilish darajasi sayqallangan, yanada oson o'rganilishi uchun har bir harf alohida yondashuv bilan ishlangan, davr ijtimoiy hayotidan chetga chiqmagan holda bolalar odob va axloqiga qaratilgan ibratli hikoyalar bilan boyitilgan. Bu esa muallifning jadidchilikda ham yetakchilik qilganidan dalolat beradi.

Rustambek domla ham bu ishlarda faol qatnashdi. Uning darsliklari ham bolalar savodini chiqarishdan tashqari, axloqi va ruhini ham yangi usulda tarbiyalaydi. Afsuski, Rustambek ibn Yusufbek Hoji ham boshqa adiblarimiz singari jadidchilik harakatida qatnashganligi uchun qamalgan. Ma'rifatparvar pedagog Rustambek Yusufbek o'g'li 1950-yilning 17-may sanasida vafot etadi. Muallif aarlaridan ayniqsa, "Ta'limi avval" darsligidan bolalarning ilk savodini chiqarishda keng foydalanilgan.

"Ta'limi avval" darsligi tahlili

"Ta'limi avval" darsligi boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan. Kitobning ikki nashri o'rganildi. Ilk nashr hijriy 1336-yilda bosilgan bo'lib, u hijriy 1332-yil, milodiy 1915-yilda bosilgan nashridan ko'p jihatdan farq qiladi. Albatta, bunga kitoblar bosilgan davr ijtimoiy hayoti ham ta'sir qilgan. Kitobning ikki xil yilda bosilgan uchtasi bugun Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining asosiy toshbosma asarlar fondida 18828, 419, 450 raqamlari ostida saqlanadi.

18828 raqami ostida saqlanadigan "Ta'limi avval" darsligining ustki qismi qattiq kulrang kartondan ishlangan bo'lib, yashil mato bilan asos mahkamlangan. Oxirgi va birinchi sahifasi yozuvsiz oddiy ko'k rangli qog'ozdan iborat. Kitob 45 sahifadan tarkib topgan. Zarvaraq naqshli jadval bilan bezatilgan, bezak sifatida gullardan foydalanilgan. U hijriy 1332-yilda bosilgan.

419 raqamda saqlanadigan kitob usti jigarrang qattiq kartonli, yonlari qora mato bilan mahkamlangan. Oxirgi va birinchi sahifasi yozuvsiz oddiy ko'k rangli qog'ozdan iborat. Kitob 45 sahifadan tarkib topgan. Zarvaraq naqshli jadval bilan bezatilgan, bezak sifatida gullardan foydalanilgan. U hijriy 1332-yilda bosilgan.

450 raqam ostida saqlanadigan “Ta’limi avval” darsligining hijriy 1336-yilda bosilgan nashrining hajmi qolgan ikki nashrga nisbatan biroz kichik, rangi sariq. Muqova qattiq kartondan ishlangan.

Barcha nusxalarda kitob varaqlari yaxshi saqlangan, ularning rangi sariq bo‘lib, matnlar qora siyoh bilan yozilgan.

Darslikning hijriy 1332-yilda chiqarilgan ikkita nusxasida ham ichki qism va undagi ma’lumotlar bir xil, bu ikki nusxa faqat muqovasining rangi bilan bir-biridan farq qiladi.

Birinchi sahifada quyidagi ma’lumotlar keltiriladi:

“Maktab ibtidoiyya islomiyaning birinchi sinf bolalariga osonlik ila tonitmak uchun tartib berilmish.

Ta’limi avval

Kitobning noshir va muharriri muallim Mulla Rustambek ibn Yusufbek Hojidir.

M1915nchi

H1332

Литография Гуламъ Хасан Арифджанова

Стар. Ташкент”

Kitobning keyingi sahifasida:

اخطار

Vatanning avlodina tarki qiroat va kitobatning tariq til ila tahsil etdirmak fikr maqsidasi, asar nafisaning nuqsonli mavjud holda ta’bi va nashrina majbur etdi. Ishta bu muhtaram muallim afandilarning bu xususda afu ehson buyurmaklariyla barobar voqe’ o‘lan nuqsonlardan va bolalarga bildirmak qiyin bo‘lgan joylardan lutfan ogoh aylamaklari niyoz ojiz onimdir. Va ba’zi birodarim muallim afandilarning amri orzuyi oliylariga tatbiqo (alifboyi arabiy) qismini boshqa xabar qildim.

Toshkent Mulla Rustambek ibn Yusufbek Hoji

Dastlab harflar o‘rgatiladi:

آ va ر harflari bilan tanishtiriladi. Ortidan misollar bilan yanada aniqlashtiriladi: رآ، آر، آرآ، آرآر kabi.

زا - ز

زارا زار، رازا، راز، آزا، آز،

ژا - ژ

رار - ر

ذا - ذ

وا - و

با - ب

پا - پ

تا - ت

ثا - ث

ن – نا va boshqa harflar keltirilib, ularga ham misollar keltiriladi. Keyin ikkilik harflarga o‘tiladi: بی بو،

Bulardan keyin umumiy harflar tartib bilan takrorlanadi:

ی ه، و، ن، م، ل، گ، ک، ز، ر، ذ، د، خ، ح، ج، ث، ت، پ، ب،

“Ch” harfi ha harfining ostida uch nuqta bilan, “ng” harfi esa gof harfining ustiga uchta nuqta qo‘yish bilan berilgan.

Harflar bilan o‘quvchilarni tanishtirgandan keyin kichik jummalarga o‘tilgan. Masalan, bozorga bordim, nima ish qildingiz, bolalarga kitob oldim, kecha qo‘yingizni sotdingizmi, bosmaxonaga bordingizmi kabi.

Mavzular bir-biri bilan uzviy aloqador shaklda tuzilgan. Jummalardan so‘ng ishoralar o‘rgatiladi. Dastlab, fatha keyin kasma, sukun kabi ishoratlar beriladi va ularga so‘zlar orqali misolar ko‘rsatiladi: جان تَن، حَلْ،

So‘ngra gap berish orqali o‘tilganlarni umumlashtirib, mustahkamlab olinadi.

Masalan: بیردی سلام اکرم (Akram salom berdi).

Keying mavzular quyidagi tartibda mavzulashtiriladi:

1. Kasralik o‘rta harflar
2. Zammalik yolg‘uz harflar
3. Kalimalar
4. Sanog‘lar (bu mavzuda sonlarning raqam va harf bilan qanday yozilishi va o‘qilishi o‘rgatiladi)
5. Taomlar
6. Donalarning oti
7. Odam a‘zosi
8. To‘rt oyoqli hayvonlar
9. Yozilib o‘qilmaydigan harflar
10. Yozilib o‘qilmaydigan alif, lomlar.
11. Jumlar
12. Musulmon jamoalari
13. Hikoyalar (“Yaxshi bola”, “Yomon bola”, “Mayna hikoyasi”, “Sher birla sichqon”, “Hazrati Luqmon o‘g‘illarig‘a nasihatlar” kabi)
14. Ta‘lim al-islom
15. Namoz harakatlari

Darslikning so‘nggi sahifasida maktab o‘quvchilari uchun zarur bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati taqdim etiladi:

Turkiston muallimlari tarafidan maktablarga qabul qilingan maktab kitoblari:

1	Ta'limi avval alifbo.....Mulla Rustambek ibn Yusufbek Hoji	12 tiyn	10 so'm
2	Ta'limi avvali Qur'oniy..... Mulla Rustambek ibn Yusufbek Hoji	9 tiyn	7 so'm
3	Ta'limi soniy..... Mulla G'ulomiddin	12 tiyn	10 so'm
4	Ne'mat al-islom.....Muhammadjon Qori	10 tiyn	8 so'm
5	Tashil al-tajviya.....Usmon Qori	10 tiyn	8 so'm
6	Erlik o'g'lon..... Muhammadjon Qori	10 tiyn	8 so'm
7	Ta'limi hisob..... Inoyatulloh Qori	10 tiyn	8 so'm
8	Hijob masalalari.....	16 tiyn	14 so'm

Ushbu kitoblar Toshkentda kitobfurushlarni hammalarida sotilmoqdadur.

Adres eski Toshkand kitob bozorida.

Kitobning 419 raqam ostida saqlanuvchi variant ham yuqoridagi variant bilan ayni birdir. Ular bir yilda bosilgan. Kitoblar faqat muqovalari bilan farqlanib turadi.

450-raqam ostida saqlanadigan "Ta'limi avval" darsligi yuqoridagi variantlaridan tubdan farq qiladi. U hijriy 1336-yilda bosilgan. Usti sariq qattiq karton muqovalidir. Undagi zarvaraqda kitob ustidagi quyidagi ma'lumotlar keltiriladi:

"Maktab ibtidoiyya islomiyaning birinchi sinf bolalariga osonlik ila tonitmak uchun tartib berilmish.

Ta'limi avval

Kitobning noshir va muharriri muallim Mulla Rustambek ibn Yusufbek Hojidir.

M1915nchi

H1332

Литография Гуламъ Хасан Арифджанова

Стар. Ташкент"

Darslikda mavzular, dastlab, harflardan boshlab tuzilgan. Birinchi mavzuda harflar o'rgatiladi, keyin ishorali harflar ko'rsatiladi. Bunda fathali, zammali, kasrali holda harflar yozilib, tagida bir nechta misollar bilan dalillanadi. Mavzu nomlari arabcha so'zlar bilan berilgan. O'quvchi harflar va so'zlar bilan tanishtirilgandan keyin gaplardan misollar keltirib o'rgatilgan. Kitob oxirida Qu'ron oyatlaridan yozilgan. Darslikning so'nggi sahifasida quyidagicha ma'lumotlar keltirilgan:

"Bahosi 8 tiyn, po'chta ila 10 tiyn"

Xulosa

Mulla Rustambek ibn Yusufbek Hoji hayoti va uning asaralari haqida ko'p ma'lumot yo'q. uning tug'ilgan sanasi, joyi va vafoti haqida hamda "Ta'limi avval", "Ta'limi soniy" asarlarining nomi ba'zi o'rinlarda tilga olingan, ammo ularga alohida to'xtalinmagan. Kurs ishi davomida "Ta'limi avval" darsligining ikki xil yilda bosilgan uch nusxadagi kitoblari tahlil qilindi. Darslikni tahlil qilish jarayonida undagi mavzular

tahlili va o'rgatish usullariga alohida e'tibor qaratildi. Darslikning hijriy 1336-yilda bosilgan variantidagi mavzular keying hijriy 1332-yildagi variantidan tubdan farq qilishi aniqlandi. Dastlabki nashrda mavzular so'nggida misollar kamroq keltirilgan bo'lsa, keying nashrdagi darslikda esa mavzular yanada biyitilgan. Misollar avvalgisiga qaraganda bir necha marta ko'proq. Mavzularning uzviy va aloqadorligi tushunarli tartibda tayyorlangan. Bu esa o'quvchi savodxonligini oshirishda yordam beradi. Dastlabki, nashrda hikoyalar keltrilmaydi. Faqat Qur'on oyatlari bilan yakunlanadi. 1915-yilda bosilgan yangi tahrirdagi darslikda esa harflar, so'zlar va jumlar tuzish o'rgatilgandan keyin kichik hikoyalar bilan o'quvchi olgan bilimlar yanada mustahkamlanadi. Bu hikoyalar ularning axloqlari va tarbiyalarini yaxshilashga mo'ljallangan. Umuman olganda, darslik o'z davri o'quvchilari uchun ardoqli va qimmatli manba bo'lib, o'quvchilariga ko'p foyda keltirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy toshbosma asarlar fondida 18828, 419, 450 raqamlari ostida saqlanuvchi "Ta'limi avval" darslik kitoblari
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>
3. https://m.wikisource.org/wiki/O%E2%80%98zbekcha_alifbolar_tarixi

BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK HOLATLARINI OLDINI OLISHNING MUHIM MASALALARI

Butayeva Shaxnoza Juldoshevna

Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani

58-maktab amaliyotchi psixologi

Odilova Shaxzoda Safarovna

Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani

57-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolaga zo‘ravonlik, shafqatsizlik kabi jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, beparvolik, psixologik zo‘ravonlik va insoniyatga to‘g‘ri kelmaydigan maqsadga erishishga qaratilgan boshqa xatti-harakatlar, bolaga og‘riq keltiruvchi, uning sog‘lig‘i va rivojlanishiga zarar etkazish - harakat haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *zulum, zarar, exploitation, beparvolik, bevosita zulum, bilvosta zulum, jismoniy zuravonlik, jinsiy zuravonlik.*

KIRISH

Bugungi kunda adabiyotlarda sinonimlar sifatida «zulum» va «nomunosib munosabat» so‘zlari ishlatiladigan «bolalarga nisbatan zulum» tushunchasi (ingl. Child Abuse) Butunjahon Sog‘liqni saqlash Tashkiloti tomonidan 1999 yilda taklif etilgan quyidagi ta‘rifga tayanadi: «Zulum» yoki «bolalar bilan qo‘pol muomalada bo‘lish» «...bolaning sog‘lig‘iga, yashashiga, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan barcha turdagi jismoniy yoki emotsional salbiy munosabat, jinsiy zulum, ehtiyotsiz yoki befarq munosabat, kommertsiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiya»ni anglatadi

Demak, xalqaro amaliyotda qabul qilingan «bolaga nisbatan zulum» atamasi o‘zida «ehtiyotsiz munosabat» hamda «tashlab qo‘yilganlik» (ingl. Neglect) tushunchalarini ham o‘zida mujassam etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekistonda «bolalarga nisbatan zulum va ehtiyotsiz munosabat» tushunchasi avvalo qonuniy asosga tayanadi. O‘zR qonunchiligiga ko‘ra, zulum deganda ehtiyotsiz va loqayd munosabatda bo‘lish nazarda tutilmaydi. Zulum va loqayd munosabat quyidagicha ta‘riflanadi: Bolaga nisbatan zulum – bolaning ixtiyoriga zid ravishda yoki uning ko‘makka muhtoj holatidan foydalanib, uning shaxsiy dahlsizlik huquqini

buzuvchi jismoniy, jinsiy va ruhiy ta'sir ko'rsatishdir. Mazkur ta'rifga binoan, zulmning jismoniy, jinsiy va ruhiy ko'rinishlari ajratib ko'rsatiladi.

Bolaga loqayd munosabatda bo'lish – ota-onalar yoki ularni o'rnini bosuvchi kishilar, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan bolalarni boqish, tarbiyalash, sog'lom turmush kechirish sharoitlarini yaratish, to'la ma'lumot olish va shu kabilarni ta'minlashga doir o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmasliklari.

Bolalarga nisbatan noloyiq munosabat turlari

Jismoniy zo'ravonlik – shafqatsizlik va bolaga og'riq keltiruvchi hamda uning sog'lig'i va rivojlanishiga zarar yetkazuvchi insoniyatga mos bo'lmagan maqsadga yo'naltirilgan boshqa xatti-harakatlar:

- ✓ bolaga yetkazilgan har qanday tana jarohati yoki og'riq berish (urish, chimchilash, tishlash, kuydirish, bolani bo'g'ish yoki cho'ktirish)
- ✓ bolaga tana jarohati yetkazilishiga qarshilik qilmaslik
- ✓ bolani har qanday jismoniy jazolash – tarsaki, kaltaklash, tahqirlash
- ✓ bolani dori yoki boshqa kimyoviy vositalar yordamida zaharlash
- ✓ Jinsiy zo'ravonlik – kattalarning jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bolalardan foydalanish. Bolani jinsiy faoliyatga jalb qilish uchun tahdid, kuch, ayyorlik va ishonchdan foydalanish.
- ✓ bola bilan har qanday jinsiy aloqa yoki munosabatlar (kuch ishlatgan holda yoki ishlatmasdan)
- ✓ bolani jinsiy aloqaga jalb qiluvchi har qanday xulq-atvor
- ✓ seksual tavsifdagi har qanday xatti-harakatlar – o'yinlar, suhbatlar, foto va video tasvirlarni tomosha qilish
- ✓ seksual g'arazgo'ylik – bolani seksual maqsadda sotish, pornografik foto va videotasvirlardan foydalanish
- ✓ fohishabozlikka jalb qilish

Emotsional (ruhiy) zo'ravonlik – bolaga lozim darajada e'tibor bermaslik, g'amxo'rlik qilmaslik, qo'llab-quvvatlamaslik, hissiy yaqinlik ko'rsatmaslik. Bola doimiy ravishda e'tibor va mehrning yetishmasligini his qilib turadi, tahdid va kamsitishlarga duchor bo'ladi va bu o'z qadr-qimmatini bilmaslik va o'ziga ishonchsizlikni oshishiga olib keladi, bularga:

- ✓ yolg'on, tahdid, qo'rqitish, kamsitish, haqorat qilish, so'kish;
- ✓ boladan voz kechish, izolyasiya
- ✓ noijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish va majburlash

✓ bola bajara olmaydigan ishlarni bajarishni asossiz talab qilish □ bolaning me'yorida rivojlanishiga to'siq bo'luvchi ortiqcha homiylik □ kattalarning o'z va'dalarini bajarmasligi, bolada ishonch tuyg'usining buzilishi.

Ehtiyotsiz munosabat (befarqlik) – bolaning jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatilishga olib keluvchi hayotiy ehtiyojlarni qondirilmasligi:

- ✓ e'tiborsiz, qarovsiz qoldirish, xavf ostida qoldirish;
- ✓ bola ehtiyojlariga nisbatan befarqlik (ovqatlanishga, tibbiy ko'makka, ta'limga, muloqotga, rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilmasligi);
- ✓ hissiy yaqinlikning yo'qligi (undan voz kechish)
- ✓ mavjud tahdiddan bolani himoya qila olmaslik (istamaslik)

Ekspluatatsiya – boladan o'z manfaati yo'lida foydalanish – og'ir mehnat, seksual foydalanish, trafik (foydalanish maqsadida bolalarni olib chiqib ketish, sotish).

Bola bilan shafqatsiz munosabatning to'rtta turini ajratadilar:

- ✓ Shafqatsiz jismoniy munosabat
- ✓ Jinsiy zo'ravonlik
- ✓ Bola ehtiyojlariga e'tiborsizlik
- ✓ Psixologik zo'ravonlik

Shafqatsiz jismoniy munosabat – bolaga yetkazilgan tasodifiy bo'lmagan har qanday tan jarohati.

Bolalar ustidan jinsiy zo'ravonlik – bola yoki o'smirdan shaxsiy jinsiy lazzat olish uchun foydalanish.

Bola ehtiyojlariga e'tiborsizlik – ota-ona yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning 18 yoshga to'lmagan bolaning asosiy ehtiyojlarini ta'minlashga surunkali noqodirligi.

Psixologik zo'ravonlik, o'z navbatida, ikki turda bo'lishi ham mumkin:

- ✓ psixologik beparvolik – bu ota-ona yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning bolaga zaruriy ko'mak, e'tibor, psixologik himoyani ta'minlashga qodir emasliklari, unga mehrning yo'qligi.
- ✓ psixologik shafqatsiz muomala – kattalar tomonidan bolani tahqirlash, uni kamsitish, xaqoratlash, mazax qilish maqsadida sodir etiladigan surunkali harakat.

Dastlab bolaga zo'ravonlik namoyon etishning sababi ota-onalarning psixologik og'ishi deb hisoblandi, keyin diqqat ijtimoiy kontekstga ko'chirildi, bundan xatar omili ota-onaning bolaga zo'ravonlik munosabatini shartlovchi qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy yakkalanishda yashirin ekanligi haqidagi xulosa kelib chiqadi. So'ng

zo‘ravonlikni ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarning buzilgan interfaol ijtimoiy modeli orqali sharhlashdi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish zarurki, tadqiqotchilar xatar omillarini shaxs, oila va jamiyat darajasida aniqlaydilar va bir omil emas, balki ularning o‘zaro ta’siri bolalar ustidan zo‘ravonlik o‘tkazishga olib kelishini isbotlaydilar. Shuningdek, ular u yoki bu xatar omilining mavjudligi zo‘ravonlikni namoyon etish degani emas, balki uning paydo bo‘lish ehtimoli yoki imkoniyati borligini ta’kidlaydilar. Bunda bir necha ijobiy omillarning mavjudligi (ijtimoiy ko‘nikmalar, “Men” ning ijobiy identifikatsiyasi va h.k.) xatar omilining ta’sirini kamaytiradi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистонда болаларни нолойиқ муносабатдан муҳофаза қилиш тизими” тренинги материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003. (Таржимон А.Юнусов).
2. Шафқатсиз муносабат ва эҳтиётсиз муносабатга дучор бўлган болалар учун рухий-тиббий-ижтимоий марказ “ОЗОН” (Россия) маълумотлари ҳамда “Ўзбекистонда болаларни нолойиқ муносабатдан муҳофаза қилиш тизими” тренинги материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003. (Таржимон А.Юнусов).
3. Абдурахмонова, М. М. (2020). Ижтимоий иш касбий фаолиятининг мактабга йўналтирилган соҳасини ривожланишида жаҳон амалиёти тажрибалари. *Журнал Социальных Исследований*, 3(6).
4. Абдурахмонова, М. М. (2021). Теории межсекторальных подходов к защите детей. *Человек. Наука. Социум*, (2), 62-74.
5. Абдурахмонова, М. М. (2021). Необходимость изучения общественного мнения для принятия эффективных решений в школе. *Человек. Наука. Социум*, (1), 33-46.
6. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Узбекская модель развития малого предпринимательства. *Ученый XXI века*, 62.
7. Абдурахмонова, М. М., & Содикова, Д. Ш. (2020). Efficiency of management of higher education institutions in the preparation of qualified personnel. *Человек. Наука. Социум*, (2), 8-27.
8. Абдурахмонова, М. М. (2021). Мактабларда самарали қарор қабул қилиш учун жамоатчилик фикрини ўрганиш зарурияти. *Журнал Социальных Исследований*, (SPECIAL ISSUE 1).

9. Абдурахмонова, М. М., & Орипов, А. (2019). Основные направления и приоритеты научной актуализации информационной парадигмы гражданского общества. *Мировая наука*, (12), 56-59.
10. Абдурахмонова, М. М., & Мирзажонов, Ж. (2020). Роль конституции в построении правового государства и гражданского общества. *Теория и практика современной науки*, (3), 9-11.
11. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Uzbek model of small business development. *Учёный XXI века*, (3-4 (16)), 58-63.
12. Madaliyeva, F., & Abdurakhmonova, M. (2021). O‘zbekistonda maktab bitiruvchi o ‘quvchilarini kasb-hunar bilan ta‘minlashda ijtimoiy ish amaliyoti. *Студенческий вестник*, (8-3), 94-95.
13. Abdurakhmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimini shakllantirishning muhim jihatlar. *Интернаука*, (7-2), 91-93.
14. Sharipova, K., & Abdurakhmonova, M. (2021). O‘zbekiston maktablarida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchisi bo ‘lgan o ‘quvchilar bilan ijtimoiy ish amaliyoti istiqbollari. *Студенческий вестник*, (8-3), 82-83.
15. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). Role of ethical culture in preventing violence among spupils. *Интернаука*, (11-2), 50-51.
16. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. (2020). Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. *Chief Editor*, (5), 8.
17. Abdurakhmonova, M. M. ugli Mirzayev, MA, Karimov, UU, & Karimova, GY (2021). Information Culture And Ethical Education In The Globalization Century. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 384-388.
18. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. Chief Editor.
19. Abdurahmonova, M. (2020). World practical experience of developing a schooloriented sphere of professional activity of social work. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1181-1186.

SAVE DRINKING WATER

Madina Akhatjonova Shavkatjon kizi

Davlatobot district of Namangan region

Student of the 6th "f" grade of the 48th general secondary school

The teacher is Shakhnoza Saidullayevna

Abstract: In this article, it was considered how important it is to save water.

Key words: Life, saving, planet, resource, wealth

Clean drinking water is one of the most important and necessary resources for human existence on planet Earth. Although water is a renewable resource, the number of areas with water shortages is increasing year by year due to the growing world population. Saving water at home not only saves this precious resource, but also helps consumers save their wallets. About 40 percent of the world's population lives in areas where clean drinking water is scarce. By 2025, 6 out of 10 people, or 5.5 billion people, may live in areas where clean drinking water is scarce. This problem is also important for our region. Moreover, today about half of the rivers on Earth are polluted and their resources are running out. Along with the great economic difficulty, the water shortage has a negative impact on the health of the population and causes social problems. In Central Asia, the reduction of water reserves and the decrease in their quality indicators are among the most urgent problems. Of course, the health and future of the population is directly related to clean drinking water. In the future, with the increase in the population, the use of surface and underground water as drinking water will increase. For this reason, in the coming years, it will be important to carry out large-scale promotional work on providing the population with clean drinking water and saving it. By revealing the main content of water and water use problems in the world, the difficulties faced by people today, the water shortage arising as a result of anthropogenic influence and its consequences, the causes of the Aral tragedy, in particular, the knowledge and practical skills of water use issues. should be applied. It is necessary to increase the awareness of the population about the water shortage due to anthropogenic influence and the problems arising as a result of it. The concept of water, the problem of water shortage, the quality of drinking water, Uzbekistan, Central Asia, the Aral Sea, transboundary rivers, etc. After air (oxygen), water occupies the main place in the life of people, animals and plants. A person can survive five weeks or more without food, but only a few days without water. 80-95% of the weight of crops and 70% of the weight of animals consists of water. 90% of the weight of the human brain is formed by specially pure water. Water continuously cleans the liver, kidneys, skin and lungs of a person's blood and the whole body from dangerous and

unnecessary substances. Foreign substances mixed with drinking water, which are not characteristic of the human body, destroy the mental state of people. In ancient times, in Arab and African countries, people brought snow and rainwater that melted from the mountains in meshes, collected it in special dome-shaped cisterns, and used it until the next spring. . In order to preserve the purity of the water, they put their silver and gold items and jewelry in the water. So, they valued water higher than gold. It is known that if we take the total water source on Earth as one hundred percent, 2.5% of it is drinking water. On average, 85% of the human body is water. These numbers are evidence of the limitless need for water in nature and man. More than 40% of the world's population suffers from water shortage. There is a possibility that this indicator will further increase due to the increase in air temperature and climate change throughout our planet. Although 2.1 billion people have gained access to relatively high-quality water and sanitation since 1991, the depletion of safe drinking water reserves is one of the most pressing problems in every continent of the globe. Currently there are 7.55 billion people living on the surface of the earth. 2 billion of the population. (26.5%) need clean drinking water, 2.4 bln. (31.8%) are forced to use water that does not meet sanitary requirements, 1.9 bln. (25.2%) of the population lives in unacceptable sanitary and hygienic conditions. According to experts' estimates, by 2025, 6 out of 10 inhabitants of the Earth's surface, or 5.5 billion people. a person is forced to live in areas where there is not enough clean drinking water. If appropriate measures are not taken by the world community, this situation will worsen year by year. In conclusion, it can be said that regarding the prevention of water problems: every person should understand the importance of water in the life of the world, country, nature, and family; It is important to explain the content of the problems and the reasons for water conservation based on national values.

REFERENCES

1. Law of the Republic of Uzbekistan "On Water and Water Use" (May 6, 1993);
2. About approving the Regulation on water use and water consumption procedure in the Republic of Uzbekistan. 06.12.2016
3. Decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan on improving the organization of water management. lex.uz/docs/245506?query
4. Land and water resources of Uzbekistan: problems and solutions. -Т.: "Baktria Press", 2017
5. Kasimova N. Global climate change and journalism. Educational manual. -Т., Journalist Retraining Center. 2016.

HAR XIL PROFILLI KONSOL BALKALARNING EGILISHINI TEKSHIRISH

Ergashov Alijon Yunus o'g'li (SamDU, magistranti)

Raxmonov Jasur O'ktam o'g'li (SamDU bakalavri)

O'tkirova Mohinur Komiljon qizi (SamDU bakalavri)

Annatsiya: Har xil profilli balkalar qurilish va texnik sohalarda turli maqsadlarda qo'llaniladi va ular asosan cho'zilish, siqilish, buralish va egilish deformatsiyalariga uchraydi. Balkaning qiyshiq egilish deformatsiyasi hisoblash masalasi ancha murakkab hisoblanadi, shuning uchun ushbu maqolada balkaning qiyshiq egilishi (gorizontal va vertikal ko'chishlar, egilish markazi) nazariy jihatdan aniqlandi va FL160 laboratoriya uskunasida tajribalar o'tkazish yordamida olingan qiymatlar taqqoslandi.

Kalit so'zlar: Balka, egilish, qiyshiq egilish, egilish markazi, deformatsiya.

Аннотация. Балки различного профиля используются для различных целей в строительстве и технике и в основном подвергаются деформациям растяжения, сжатия, кручения и изгиба. Задача расчета деформации косого изгиба балки достаточно сложна, поэтому в данной статье косой изгиб балки (горизонтальные и вертикальные перемещения, центр изгиба) был определен теоретически и значения получены путем проведения экспериментов на FL160 лабораторное оборудование сравнивалось.

Ключевые слова: Балка, изгиб, косой изгиб, центр изгиба, деформация.

Annotation. Beams of various profiles are used for various purposes in the construction and technical fields, and they are mainly subjected to stretching, compression, twisting and bending deformations. The problem of calculation of the oblique bending deformation of the beam is quite complicated, so in this article, the oblique bending of the beam (horizontal and vertical displacements, bending center) was determined theoretically and the values obtained by conducting experiments on FL160 laboratory equipment were compared.

Keywords: beam, bending, oblique bending, bending center, deformation.

Kirish. Zamonaviy qurilish va texnika fanlarining nazariy bilimlari, laboratoriya sinovlarining o'tkazilish natijasida olingan bilimlarga asoslanadi. Demak, texnika fanlarini puxta o'zlashtirishda laboratoriyalar o'tkazish va natijalarini olish juda muhimdir. Laboratoriya o'tkazish orqali yangidan yangi qurilish va texnik materiallar yaratish, ularning fizik, kimyoviy va mexanik xususiyatlarini o'rganish mumkin. Bu natijalar nazariy bilimlarning qanchalik to'g'ri ekanligini belgilab beradi. Bu keltirilganlarni etiborga olgan holda ushbu maqolada har xil profilli konsol balka

qiyshiq egilishini aniqlash masalasi o'rganildi, qiyshiq egilishda konsol balkaning erkin uchi salqiliklari, normal kuchlanishlar va egilish markazi nazariy va amaliy laboratoriya o'tkazish yo'li bilan aniqlandi va natijalar taqqoslandi.

Masalaning qo'yilishi. Balka o'qiga perpindikulyar joylashgan kuchlar sistemasi yoki balka o'qiga ko'ndalang kesimga perpindikulyar joylashga tekisliklarda yotuvchi juft kuchlar ta'siridan hosil bo'ladigan deformatsiyaga **egilish** deyiladi.

Qurilish va texnikada ko'p hollarda kamida bitta simmetriya o'qiga ega bo'lgan ko'ndalang kesimli balkalardan foydalaniladi. Agar balkaga ta'sir qiluvchi barcha tashqi kuchlar va reaksiya kuchlari bo'ylama markaziy o'qdan o'tuvchi tekislikda yotsa va bu tekislik balka uchun simmetriya tekisligi bo'lsa, u holda bunday egilish **tekis egilish** deyiladi. Tekis egilishda balkaning egilgan o'qi ham shu simmetriya tekisligida yotadi.

Balka o'qiga tik, lekin simmetriya tekisligida yotmagan kuchlar ta'siridan hosil bo'ladigan egilishga **qiyshiq egilish** deyiladi.

Qiyshiq egilishda kuchlanishlarni aniqlash. Bir uchi qistirib mahkamlangan konsol balkaning ikkinchi erkin uchiga x-zorizontalg nisbatan φ -burchak ostida P-kuch ta'sir qilsin. P kuchni koordinata o'qlari bo'yicha ikkita tashkil etuvchilarga ajratamiz:

$$\begin{cases} P_y = P \sin \varphi \\ P_x = P \cos \varphi \end{cases} \quad (1)$$

Konsol balka erkin uchidan z masofadagi kesimning bosh inersiya o'qlariga nisbatan eguvchi momentlari quyidagiga teng bo'ladi:

$$\begin{cases} M_x = z P_y = z P \sin \varphi \\ M_y = z P_x = z P \cos \varphi \end{cases} \quad (2)$$

Demak, har bir bosh tekislikda hosil bo'lgan eguvchi momentlar ta'sirida, balka o'zining ikkita bosh tekisliklari bo'ylab egiladi.

Balka kesimining ixtiyoriy nuqtasini kuchlanishni aniqlash uchun, har bir momentdan hosil bo'ladigan kuchlanishni topib (tekis egilishda kuchlanishni aniqlash formulasidan), kuchlar ta'sirining mustaqillik prinsipiga ko'ra umumiy formulani yozamiz:

$$\sigma = \frac{M_x}{I_x} y + \frac{M_y}{I_y} x \quad \text{yoki} \quad \sigma = \pm \frac{M_x}{W_x} \pm \frac{M_y}{W_y} \quad (3)$$

bu yerda W_x va W_y kesimning qarshilik momentlari, I_x va I_y kesimning bosh o'qlarga nisbatan inersiya momentlari, x va y kesimning ixtiyoriy C - nuqtasini koordinatlar.

Qiyshiq egilishda balka ko'ndalang kesimidagi nol chiziqning holatini aniqlash. Bu holatni aniqlash uchun, nol chiziqdagi nuqtalarning kuchlanishlarini (3) formulada nolga tenglab topamiz:

$$\frac{M_x}{I_x} y_N + \frac{M_y}{I_y} x_N = 0 \quad \text{yoki} \quad -\frac{y_N}{x_N} = \frac{I_x}{I_y} \cdot \frac{M_y}{M_x} \quad (4)$$

bu yerda x_N va y_N nol chiziqda yotgan nuqtaning koordinatasi. Nol chiziqni Ox o'qiga nisbatan og'ishini α deb belgilasan, u holda

$$\operatorname{tg} \alpha = -\frac{y_N}{x_N} \quad \text{yoki} \quad \operatorname{tg} \alpha = \frac{I_x}{I_y} \cdot \frac{M_y}{M_x} \quad (5)$$

Bu formulada (2) tenglikni etiborga olibsak,

$$\operatorname{tg} \alpha = \frac{I_x}{I_y} \cdot \operatorname{ctg} \varphi \quad (6)$$

Qiyshiq egilishda salqilikni aniqlash. Qiyshiq egilishda konsol balkaning erkin uchiga ta'sir qilayotgan P kuchning o'qlar bo'yicha tashkil etuvchilari ta'siridan, o'qlar bo'yicha salqiliklar hosil bo'ladi. Bu salqiliklarni mos o'qlar bo'yicha f_x va f_y deb belgilaymiz, ularni aniqlash quyidagi formulalar bilan amalga oshiriladi:

$$\begin{cases} f_x = \frac{P_x L}{3EI_y} \\ f_y = \frac{P_y L}{3EI_x} \end{cases} \quad (7)$$

Umumiy salqilik esa geometric yig'indisi sifatida topiladi:

$$f = \sqrt{f_x^2 + f_y^2} \quad (8)$$

Umimiy salqilikning ko'chish yo'nalishini Oy -o'qi bilan tashkil qilgan burchagini quyidagicha topamiz:

$$\operatorname{tg} \beta = \frac{f_y}{f_x} \quad \text{yoki} \quad \operatorname{tg} \beta = \frac{I_x}{I_y} \cdot \operatorname{ctg} \varphi \quad (9)$$

Bu (9) formulada (7) ni etiborga olsak, $\alpha = \beta$, ($\operatorname{tg} \beta = \operatorname{tg} \alpha$) ekanligi bilamiz, demak, salqilik ko'chish yo'nalishi nol chiziqqa perpendikulyar bo'ladi. Bundan salqilik ko'chishi yo'nalishi, kuchlanish tekisligi bilan mos kelmaydi degan hulosani qilish mumkin. Shuning uchun bunday egilish qiyshiq egilish deyiladi.

Egilish markazi. Yupqa devorli sterjenlarda kuch tekisligi uning ko'ndalang kesimining markaziy bosh inersiya o'qlari ustida bo'lgan taqdirda ham buralish hodisasi ro'y beradi. F - kuch, balka kesimining bosh markaziy o'qlaridan biri yotgan tekislik bo'ylab sveller uchiga ta'sir qilsin. Bu kuch ta'sirida shvellerning ustki va ostki tokchalarida bir-biriga qarshi yo'nalgan va miqdorlari teng bo'lgan urinma kuchlanishlar hosil bo'ladi. Bu urinma kuchlanishlar aniqlash uchun egilishda urinma kuchlanishlarni aniqlash formulasidan foydalanib aniqlaymiz:

Egilishda urinma kuchlanishni aniqlash formulasi

$$\tau = \frac{QS_x^{aj}}{I_x \delta} \quad (10)$$

bu yerda Q -qiruvchi kuch; S_x^{aj} - kuchlanish tekshirilayotgan qatlamdan yuqoridagi ajratib olingan bo'lakcha yuzining bosh x-o'qqa nisbatan statik momenti; δ - balka devoir qalinligi; I_x - balka ko'ndalang kesim yuzining bosh x-o'qqa nisbatan inersiya momenti. (10) formulandan shvellerning yuqori va pastki tokchalardagi

kuchlanishlarni aniqlash formulasini hosil qilishda $h_1 = h - t$, $b_1 = b - d$ larni e'tiborga olamiz

$$\tau_{max} = \frac{Qh_1b_1}{4I_x} \quad (11)$$

Tokchalardagi siljitivchi kuchlar kuchlanish bilan tokcha yuzasining ko'paytmasiga

$$T_1 = \tau_{max}b_1t = \frac{Qth_1b_1^2}{4I_x} \quad (12)$$

Shveller kesim yuzida hosil bo'lgan vertikal urinma kuchlanishning teng ta'sir etuvchisi $T_2 = Q$ ga teng bo'ladi. Bu kuchlar ta'sirida shveller ko'ndalang kesim soat strelkasi yo'nalishida buraladi, lekin shunday C nuqta borki bu nuqtaga nisbatan moment nolga teng bo'ladi.

$$\sum m_C = h_1T_1 - eT_{2max} = 0 \quad (13)$$

Bu ifodada (12) etiborga olib, shvellerning vertical devor o'qidan egilish markazigacha bo'lgan masofani aniqlaymiz.

$$e = \frac{tb_1^2h_1^2}{4I_x} \quad (14)$$

Agar tashqi kush kesimning og'irlik markaziga emas, egilish markaziga qo'yilsa, og'irlik markaziga nisbatan ichki urinma kuchlarning momentiga teng, lekin teskari ishorali moment hosil bo'ladi. Sheller burday yuklanganda buralmasdan faqat egiladi. Shuning uchun ham bunday nuqtaga egilish markazi deyiladi. Odatda amaliyotda egilish markaziga kuch qoyish uchun shveller yoniga bir bo'lak metal payvand qilinadi.

Xulosa. Berilgan nazariy bilimlar yordamida har xil profilli balkalarning tekis va qiyshiq egilishlarini tekshirish mumkin:

- Konsol balkaning ixtiyoriy nuqtasining salqiligini,
- Konsol balkaning ixtiyoriy nuqtasining kuchlanishini,
- Ko'ndalang kesim egilish markazini aniqlash mumkin bo'ladi.

-

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. М.Т.Ўрозбоев Материаллар қаршилиги асосий курси . Тошкент “Ўқитувчи” 1973.
2. К.М.Мансуров Материаллар қаршилиги. Тошкент “Ўқитувчи” 1988.
3. Х.Т.Қорабоев, Материаллар қаршиликidan лабораторија ишлари. Ташкент “О'қитувчи” 1983.
4. Б.Қорабоев. Материаллар қаршилиги фанидан лабораторија ишлари Тошкент “Ўқитувчи” 1990.
5. В.Қорабоев, Ү.Лексашев. Материаллар қаршилиги қисқача курси Ташкент “Ўзбекистон” 2000
6. N.S.Bibutov Материаллар қаршилиги Ташкент «Минхој» 2003,
7. В.Л.Соловьев. Проведение виртуальных лабораторных работ по сопротивлению материалов. Хабаровский центр дистанционного образования 2010.
8. В.Б.Квактун, М.Г.Мартыненко .Сопротивление материалов: лаб. практикум: для техн. вузов/ сост. – Иркутск: Изд-во ИрГТУ, 1999.– 270 с.
9. В.Қорабоев, Ү.Лексашев. Материаллар қаршиликidan лабораторија амалий машг'улотлари. Ташкент“Ўзбекистон” 2004.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'RGATISH JARAYONIDA GRAMMATIK QOIDALARNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI

Xayitova Ma`muraxon Egamberdiyevna

University of Business and Science ning magistratura talabasi

Annotatiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatish jarayonida grammatik qoidalarni shakllantirish ahamiyati haqida berilgan. Shuningdek, Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatish jarayonida grammatikadan kichik kichik qoidalarni situatsion yondashuvlar asosida olib boriladi. O'qituvchi o'quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllantirish jarayonini boshqarish, o'quvchilar aqliy faoliyatini to'g'ri tashkil etish uchun u tushuncha nimaligini, tushunchani bilib olish jarayonining xususiyatlarini, tushunchani o'zlashtirish qanday sharoitda natijaliroq bo'lishini ko'z oldga aniq keltirishi lozim. Grammatik tushunchalarda ham, boshqa tushunchalar kabi, hodisalarning muhim belgilari umumlashirilgan holda aks ettiriladi. Til hodisalarining o'ziga xos xususiyati, ya'ni tushunchaning mazmun tomoni grammatik tushunchaning o'ziga xos xususiyatini keltirib chiqaradi.

Kalit so'zlar: Grammatik qoidalar, Grammatik xususiyatlar, vaziyatli taqdimot.

ВАЖНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАММАТИЧЕСКИХ ПРАВИЛ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Xayitova Ma`muraxon Egamberdiyevna
Магистрант Университета бизнеса и науки

Аннотация: В данной статье говорится о важности формирования грамматических правил в процессе обучения английскому языку в начальных классах. Также в процессе обучения английскому языку в начальных классах преподавание грамматических правил осуществляется на основе ситуативных подходов. Чтобы управлять процессом формирования у учащихся грамматических понятий, правильно организовать мыслительную деятельность учащихся, преподаватель должен иметь четкое представление о том, что представляет собой понятие, особенности процесса усвоения понятия, при каких условиях овладение понятием. концепции будет более эффективной. Грамматические понятия, как и другие понятия, обобщают важные особенности событий. Характерная особенность языковых явлений, т. е. содержательная сторона понятия, порождает характерный признак грамматического понятия.

Ключевые слова: Грамматические правила, Грамматические особенности, ситуативное изложение.

THE IMPORTANCE OF FORMING GRAMMATICAL RULES IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH IN PRIMARY GRADES

Xayitova Ma`muraxon Egamberdiyevna
Master's student of University of Business and Science

Annotation: This article talks about the importance of forming grammar rules in the process of teaching English in elementary grades. Also, in the process of teaching English in primary classes, grammar rules are taught based on situational approaches. In order to manage the process of students' formation of grammatical concepts, to properly organize the mental activity of students, the teacher must have a clear vision of what the concept is, the features of the process of learning the concept, under what conditions mastery of the concept will be more effective. Grammatical concepts, like other concepts, summarize important features of events. The characteristic feature of linguistic phenomena, that is, the content side of the concept, gives rise to the characteristic feature of the grammatical concept.

Key words: Grammatical rules, Grammatical features, situational presentation.

Bugungi kunda tilni yuqori darajada o'rganish barcha ta'lim va o'quv muassasalari til o'rganuvchilari uchun muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi kunda muhim bo'lgan ingliz tilini o'rganish va o'rgatish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ingliz tilini o'rganish paytida, boshlang'ich darajadagi o'quvchi avvalo hamma qoidalarni yodda tutishga harakat qiladi. Odatda, grammatika qoidalari, grammatik qoidalarni xususiyatlari va ingliz tili muammolarini hal qilish uchun kerakli bo'lishi mumkin. Birinchi bosqichda, o'quvchilar ingliz tilni mukammal tarzda o'rgangan holda ro'l o'ynaydigan grammatika qoidalari bilan tanishishi kerak. Bu shuni anglatadiki, ularning eng asosiy vazifasi gapiruvchini to'g'ri tushuntirishdir. Keyingi bosqichlar esa, so'zlashma va gaplardagi xatolar bilan bog'liqdir. Shu sababli, gapiruvchi va tinglovchi orasidagi voqealarni mukammal tarzda tushunish juda muhimdir. Ingliz tilini o'rganadiganlar uchun birinchi navbatda eng katta muammo shundaki, ularning odamlar bilan suhbatlashgan holda topshiriqlar bajarib ko'proq amaliy mashg'ulotlarga ishonch hosil qilishi kerak. Bu mahalliy tillarning mushtarak xususiyati hisoblanadi. Asosiy maqsad ingliz tilini yaxshi ko'rinishda o'rgangan holda uni amaliy hayotga tatbiq etmoqdadir.

Darhaqiqat, mamlakatimizda maktab ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalardan biri til o'rganishi hamda hunar orgatishga qaratilgan. Bu, ayniqsa, o'quvchilarga ijtimoiy voqelikni chuqurroq anglashga, o'z kasbiy ko'chishi uchun keyingi ta'limni to'g'ri

tanlashga, insoniy qadriyatlarga mustahkam bog'liqlikni anglab yetishga, chuqurroq va muhimroq bilim va o'z-o'zini bilishga yordam beradi. tanqidiy va ijodiy ruh, hayot, ilm-fan, san'at va xalqaro sivilizatsiyaga ega bo'lish, tarixiy voqealarni, san'at va fan tarixini o'rganish va chuqurroq bilish bilan o'z nuqtai nazarini rivojlantirish, ularning ongli va til madaniyatini boyitish hamda estetik jihatdan rivojlantirish, mezon, ularning kinetik qobiliyatlari va moyilliklarini muayyan harakatlar orqali yaxshiroq tushunish va ularning hayot sifatini yaxshilaydigan sport odatlariga ega bo'lish. Mustaqil O'zbekistonimiz bugun har bir sohani rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ta'kidlaganidek: "Yangi texnologiyalarni o'zlashtirayotgan davrda biz yoshlarning kitob mutolaasiga, kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik darajasini oshirishga e'tibor qaratishimiz kerak. Milliy adabiyotimizni, jahon adabiyotini ijtimoiy tarmoqlarda o'rnatish va targ'ib qilish zarur" [1]. Bu nutq murojaat bo'ldi. Qo'shimchasiga shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek adabiyotini dunyoga tarannum etish biz uchun dolzarb masala. Chet tilini muvaffaqiyatli o'rganish uchun dalillarni topish oson, bu ushbu holatlar va ko'pchilik til dasturlari muvaffaqiyatsizligi o'rtasidagi tafovutga olib keladi, bu esa chet tilini o'zlashtirish bo'yicha tadqiqotlarni hissiy jihatdan tushunishga yordam beradi. Grammatikani tarjima qilish usuli yoki metodi kabi eski usul va yondashuvlar rad etiladi va hatto masxara qilinadi, chunki boshlang'ich maktablarda chet tili o'quvchilarining yuqori qobiliyatsizligi muammosining yagona va to'liq yechimi sifatida yangi usul va yondashuvlar ixtiro qilinadi va ilgari suriladi. Ingliz tili o'rganuvchisi sifatida shuni aytishim mumkinki, texnologiyadan foydalanish boshlang'ich maktablarda ingliz tilini o'qitishning samarali usuli bo'ladi.

Maktablarda chet tilini o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ingliz tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, mazmunli, ravon qilib ifodalay olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatish jarayonida grammatikadan kichik kichik qoidalarni situatsion yondashuvlar asosida olib boriladi.

O'qituvchi o'quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllantirish jarayonini boshqarish, o'quvchilar aqliy faoliyatini to'g'ri tashkil etish uchun u tushuncha nimaligini, tushunchani bilib olish jarayonining xususiyatlarini, tushunchani o'zlashtirish qanday sharoitda natijaliroq bo'lishini ko'z oldga aniq keltirishi lozim.

Grammatik tushunchalarda ham, boshqa tushunchalar kabi, hodisalarning muhim belgilari umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Til hodisalarining o'ziga xos xususiyati, ya'ni tushunchaning mazmun tomoni grammatik tushunchaning o'ziga xos xususiyatini keltirib chiqaradi. Til hodisalari, til kategoriyalari boshqa hodisalarga nisbatan juda

mavhumligi bilan farqlanadi. Biologik tushunchalarni shakllantirishda belgilarini kuzatish, sistemaga solish va umumlashtirish mumkin bo'lgan aniq, hodisalar va predmetlar material sifatida asos qilib olinadi. Grammatik tushunchalar esa so'z, so'z birikmasi, gap, mor-fema, leksema, fonema va boshqalarning o'ziga xos muhim belgilarini aniqlash va umumlashtirish natijasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, kishilar tomonidan yaratilgan grammatik tushunchaga asos bo'lgan dastlabki materialning o'zi yetarli darajada mavhumdir. Demak, grammatik tushunchalar umumlashtirilganlarning yana ham umumlashtirilgani hisoblanadi.

Grammatik tushunchaning bu xususiyatlari tufayli o'quvchilarda tushuncha juda ko'p qiyinchilik bilan shakllanadi. Grammatik tushunchani bilib olish uchun mavhum tafakkur ma'lum daraja-da rivojlangan bo'lishi lozim. Mavhum tafakkur ta'lim jarayonida vujudga keladi va maxsus mashqlarni talab qiladi. Bu mashqlar muayyan aqliy ko'nikmalarni va lingvistik tasavvur hamda bilimlar kompleksini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Ko'pgina psixolog olimlarning tekshirishlari natijasida, Grammatik tushunchani shakllantirish jarayoni tafakkurga oid analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, aniqlashtirish amallarini bilib olish jarayoni ham hisoblanadi. O'quvchilarda tushunchani shakllantirishning natijasi ularning mavhumlashtirish faoliyatining qay darajada o'sganligiga bog'liq. Mavhumlashtirishda qiynaladigan o'quvchilar so'zlarni taqqoslay olmaydilar va ularning muhim grammatik belgilariga ko'ra bir guruhga birlashtira olmaydilar, tushunchani shakllantirishda qiynaladilar va xatoga yo'l qo'yadilar. Masalan, fe'l o'rganilganda o'quvchilar fe'l predmetning harakatini bildirishini bilib oladilar. to run, to eat, to dance kabi fe'llarda leksik ma'no grammatik ma'noga mos keladi. Ko'p fe'llarda bunday moslik bo'lmaydi. Grammatikada predmet harakati deyilganda, harakat bilan birga predmetning holati, uning boshqa predmetlarga munosabati, predmet belgisining o'zgarishi kabilar ham tushuniladi: uxlamok, o'ylamok, sevmoq, o'smoq, ko'karmoq va hokazo. Predmet harakatini bunday keng ma'noda, umumlashtirilgan holda tushunish endigina tilni o'rgana boshlagan o'quvchilarga qiyinlik qiladi, ular harakatni ko'proq yurish, siljish ma'nosida aniq tasavvur qiladilar. Shuning uchun fe'lni o'rganishning boshlang'ich bosqichida yotmoq, kasallanmoq, turmoq, qizarmoq kabi so'zlarni predmetning harakatini bildiradi deb hisoblamaydilar. Bunday hodisani o'rganishda ham uchratish mumkin. Ayrim o'quvchilar tinchlik, qahramonlik, qadam kabi so'zlarni ot turkumiga kiritmaydilar. Tushunchani shakllantirish uchun o'quvchilarda mavhum ko'nikmasini o'stirish, ular diqqatini so'zning aniq leksik ma'nosidan grammatik ma'nosiga qaratish va shu guruhdagi so'zlarga oid umumiy, grammatik belgilarni hisobga olgan holda, ularni bir guruhga birlashtirish talab etiladi. Masalan, kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'ladigan barcha so'zlar «ot» turkumiga birlashadi; predmetni bildirish, son (birlik va ko'plikda kelish), egalik qo'shimchalari bilan o'zgarish, kelishiklar bilan turlanish bu so'zlar

uchun umumiy gram-matik belgilar hisoblanadi. Tushunchani shakllantirishda xatoning oldini olish uchun ta'lim berish jarayonida qator metodik talablarga rioya qilinadi[4].

Grammatik qoidalarni o'zlashtirish ustida ishlash jarayoni o'ziga xos murakkab jarayon hisoblanadi[3]. Grammatik tushunchani o'zlashtirish uzoq Grammatik qoidalarni o'zlashtirish davom etadigan va kichik yoshdagi o'quvchilar uchun ancha murakkab jarayondir. O'qituvchi boshlang'ich sinflarda tushunchani o'zlashtirishga oid ishlarni tashkil etishda o'rganiladigan tushunchaning lingvistik mohiyatini, bilimlarni o'zlashtirish jarayonining psixologik-didaktik xususiyatlarini, o'quvchilarning nutqiy va aqliy o'sishi bir-birini taqazo etishini, grammatik bilimning nutqdagi rolini asos qilib oladi.

Grammatik tushunchalarda til hodisalarining muhim belgilari umumlashtiriladi. Tushunchani o'zlashtirish ustida ishlash jarayonida o'rganiladigan tushunchaning muhim belgilarini ajratish maqsadida muayyan til materiali analiz qilinadi. Masalan, so'z o'zgartuvchi qo'shimcha uchun ikki muhim belgi xarakterli: 1) so'z o'zgartuvchi qo'shimcha — so'zning o'zgaradigan qismi; 2) so'z o'zgartuvchi qo'shimcha sintaktik vazifani bajaradi, ya'ni gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Tushunchani o'zlashtirishga oid ishlarda o'qituvchi muayyan bir tushunchaning muhim belgilarini aniqlab oladi, dastur talabiga ko'ra shu sinf o'quvchilarini tushunchaning qanday belgilari bilan tanishtirishni, foydalanganda yaxshi natija beradigan leksik materiallarni hamda metodik usul va vositalarni belgilab oladi[2].

Ingliz tili grammatikasini bir necha oylar davomida to'liq va eng muhimi oson o'rganish uchun quyidagi sinovdan o'tgan, ishonchli hamda to'liq yaxshi natija beradigan oddiy ko'rsatmalarga amal qilgan holda o'rganishga kirishign:

1. Ingliz tili grammatikasini o'rganishdan avval o'zbek tili grammatikasini yaxshi tushunib oling.

O'z ona tilini bilmagan kishi xorijiy tilni mukammal darajada o'rgana olmaydi. Ingliz tili grammatikasini o'rganishga kirishganingiz juda yaxshi, ammo bundan oldin o'zbek tili grammatikasini o'rgansangiz yoki mavjud bilimlaringizni takrorlasangiz, xorijiy til grammatikasini o'rganishingiz oson kechadi. O'zbek tili va ingliz tili grammatikalari tuzilish, kelib chiqish va o'rganilish jihatidan ancha farqli bo'lishiga qaramasdan tilni o'rganishda ishlatiladigan asosiy grammatika tushunchalar bu ikki tilda bir xildir [8]. Shu sababli ularni qiyoshlash, taqqoslash hamda umumiy tushunchalarni birlashtirish orqali ingliz tili grammatikasini yaxshiroq tushunish mumkin. O'z ona tilingizni qancha yaxshi bilsangiz, uning grammatika qoidalarini qancha yaxshi tushunsangiz, ingliz tili grammatikasini ham shunchalik oson o'rganasiz.

2. Ingliz tilini o'rganmang. Ingliz tilini yashang!

Tilni shunchaki o'rganish orqali uning grammatikasini yaxshi tushunib olish juda qiyin. Ingliz tili grammatikasini oson o'rganish uchun grammatik qoidalarni yodlash, grammatikaga oid kitoblar o'qish yoki zerikarli grammatika darslariga qayta-qayta qatnashaverishning o'zi yetarli emas. Grammatikani o'rganishni osonlashtirishdagi birinchi qadam – bu til grammatikasi qurilishini butun vujudingiz bilan his qilgan holda uning har bir qoidasi mazmunini tushunib olishingiz hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, grammatikani o'rganish uchun Siz uni butun vujudingiz bilan his qila olish darajasida tushunishingiz, shu tushunchani aqliy hayotingizga kirita olishingiz kerak. Buni qanday amalga oshirsa bo'ladi? Tasavvur qiling, Siz ingliz tili grammatikasida son (the numeral) mavzusini o'rganmoqchisiz. Buning uchun Siz faqatgina son haqidagi qoidalarni o'qish bilan cheklanib qolmang. Qo'lingizga ruchka va yangi varaq oling-da, mavzu haqidagi Siz tasavvur qilgan eng sodda, eng tushunarli, eng qiziqarli bo'lgan qoidani o'zingiz uchun yarating. Agar zarur bo'lsa qo'shimcha tushunchalarni yozing. Mayli, bu yozganlaringiz kitoblardagidek murakkab bo'lmasin, muhimi u Sizning qarashlaringizga uyg'un holda tabiiy bo'lsin! Qarabsizki, son mavzusining Sizga mos, tushunarli va muhimi o'rganishingiz uchun qulay bo'lgan tushunchalari paydo bo'la boshlaydi. Shu tariqa har bir mavzuni o'zingizga moslagan holda ingliz tili grammatikasini o'z xohishlaringiz, uslubingiz, qarashlaringizdan kelib chiqqan holda oson o'rganishni boshlaysiz. Muhimi tashqi muhit emas. Eng muhimi – bajarayotgan ishingizga nisbatan munosabatingiz!

3. O'rganishingizni o'rganing.

Siz qaysi usulda dars qilsangiz yaxshiroq o'rganasiz? Mana shu narsani yaxshi tushunib oling. Kimlardir eshitish orqali, kimlardir ko'rish yoki bajarish orqali yaxshi o'rganadi. Agar Sizda eshitish orqali o'rganish oson bo'lsa grammatik qoidalarni o'zingiz telefoningiz diktofoniga o'qishingiz ovozini yozib olib, keyin uni kun bo'yi tinglab yurishingiz mumkin. Ko'rish orqali yaxshi o'rgansangiz ingliz tili grammatikasiga oid slaydlar va video darslar yordamida bilim oling. Bajarish orqali o'rganishingiz osonroq kechsa mavzuga doir mashqlarni odatdagidan ko'proq bajarishga va o'rganilgan grammatik qoidani ko'proq amalda qo'llashga harakat qiling.

4. Mavjud bilimlaringizdan unumli foydalaning.

Agar rus tilini bilsangiz, ingliz tilini o'rganish jarayonida bu bilimingizdan unumli foydalanishingiz mumkin! Rus tili grammatikasi ingliz tili grammatikasiga qanchalar yaqin ekanligini juda yaxshi bilasiz. Bu mutanosiblikdan ikki tilni solishtirgan holda yangi bilimlarni egallashda foydalanishingiz mumkin. Ingliz tili va rus tili grammatikasi o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqli jihatlarni sinchiklab o'rganib chiqish jarayonining o'zida ham qanchadan-qancha yangi tushunchalarni o'zlashtirib olish mumkin!

5. Do'stingiz bilan birga o'rganing.

Yolg'iz o'rganishga nisbatan kim bilandir raqobatlashib, yoki fikrni o'rtoqlashga yolda o'rganish ancha samaralidir. Imkon qadar ingliz tili grammatikasini o'rganayotgan do'stingiz bilan ko'proq aloqada bo'lib turing. U bilan grammatik mavzu yuzasidan tez-tez savol-javoblar o'tkazib turing. Agar ingliz tili grammatikasini birga o'rganish uchun yaqin tanishingiz yoki do'stingiz bo'lmasa, bunday sherikni mahalliy til markazlarida o'qiyotgan tengdoshlaringiz, Siz o'qiyotgan ilm dargohidagi talabalar, eng qiyin hollarda esa internet orqali ingliz tilini o'rganish saytlari foydalanuvchilari, masalan odnoklassniki saytidagi ingliz tilini o'rganish guruhlari a'zolari orasidan tilni birga o'rganish uchun sherik topishingiz mumkin. Izlangan har doim imkon topadi!

6. Xato qilishdan qo'rqmang!

Grammatikani o'rganish doimiy xatolar qilib, ularni tuzatish orqali tushuncha olishdan iborat ekanligini bilasizmi? Agar bilmasangiz, grammatikani o'rganish davrida u yoki bu mavzu yuzasidan mashq bajarganda xatolarga yo'l qo'yishingiz natijasida o'zingizni yomon his qilishingiz, o'rganishga bo'lgan shijoatingiz tushib ketishi va natijada ko'proq kuchingizni o'rganishga emas, xatolaringizdan hafa bo'lishga sarflab qo'yishingiz mumkin. Xatolar qilish orqali o'rganish qiziq, foydali va esda qolarli ekanligini bilganingizda esa yuqoridagi yomon hissiyotlar Sizni hech qachon to'xtatib qola olmaydi! Hech qachon ingliz tili grammatikasini o'rganishda xato qilishdan qo'rqmang. Xato bo'lishi mumkin bo'lsa ham mavzuga oid fikringizni aytishga harakat qiling.

7. O'rganganlaringizni tez-tez takrorlab turing.

Bir marta o'rgangan grammatik qoidangizni bir haftada bir marta 3 soat vaqt sarflab takrorlashga nisbatan har kuni 3 minutdan vaqt sarflab takrorlab turishingiz yaxshiroq samara beradi. Takrorlash jarayonini qanchalik uzoq vaqt davom etishiga emas, balki takrorlashingizning qanchalik tez-tez amalga oshirilib turishiga asosiy e'tiboringizni qarating! O'rgangan bilimingizni takrorlamay qo'ysangiz tez fursat ichida bu bilimingizdan ajralib qolishingiz mumkinligini unutmang! Faqat takrorlab tursangizgina bilimingiz mustahkamlanadi. Sizda mavjud bilimlarni takrorlab turishni ingliz tili grammatikasida oid mashqlar to'plamidagi grammatik mashqlarni bajarish, grammatika qoidalarni o'qish yoki do'stingiz bilan grammatikaga oid savol-javoblar o'tkazib turish orqali amalga oshirishingiz mumkin.

8. O'rgatish orqali o'rganing.

Balki Siz hali ingliz tili grammatikasini to'liq o'zlashtirmagandirsiz, ammo undagi eng kichik, sodda tushunchalarni yaxshi yodlab olgan bo'lishingiz mumkin. Bu holda ingliz tilini o'rganishga qiziqayotgan Sizdan kichik ukangiz, tanishingiz yoki butunlab begona biror kishiga Siz yaxshi bilgan grammatik qoidani yaxshilab tushuntirib berishingiz, boshqa kishiga o'rgatishingiz o'zingizning o'rganishingizda juda katta ahamiyatga ega. Kingadir biror narsani o'rgatish uchun mazkur bilimni

qayta-qayta takrorlash, izlanish va yaxshiroq tushuntirishning osonroq yo'llarini izlashga to'g'ri keladi. Bu esa o'z-o'zidan mavzuni takrolashingiz hamda mustahkam o'rganishingizni anglatadi. Kingadir ingliz tilini o'rgatish uchun katta o'qituvchi bo'lishingiz, ingliz tilini professional darajada bilishingiz umuman shart emas. Sizda bor bilimlarni bugundan boshlab yana kingadir o'rgatishga kirishing.

REFERENCES:

- [1] Shavkat Mirziyoyev June 30 - Holiday congratulations to the youth of Uzbekistan on the occasion of Youth Day. June 30, 2021.
- [2] Ibragimov XI, Abdullayeva Sh.A. Theory of pedagogy. - T.: "Science and Technology" Publishing House, 2008.
- [3] Jalolov J. Methods of teaching a foreign language. - Tashkent., 2012
- [4] Techniques and Principles in Language Teaching (Oxford University Press), 2001.
- [5] Savignon, S. 2001 Communicative language teaching: state of the art. TESOL.
- [6] Littlewood, W. 1986 Communicative language teaching. Cambridge: Cambridge University Press
- [7]. Salomov G'. Language and translation. - T.: Science, 1966. - What?3.
- [8]. Salomov G', Komilov N. Friendship bridges. - Tashkent: publishing house of literature and art named after Gafur Gulom, 1979, page 68.
- [9]. Thank You Very Much. Povest and stories new year's Eve in Peru. T.: Uzdavnashr, 1954. – What 293. (Further examples of Uzbek are taken from this book and indicated in brackets).
- [10]. Rakhmet Feyzi. New Year's Party / Uzbekistan speaks. Short stories. Foreign Languages Publishing House. Moscow, 1958, - R.133

О‘SMIRLAR TARBIYASIDA O‘ZIGA XOS TARBIYA VOSITALARI, QIYINCHILIK XUSUSIYATLARI

G‘ofurjonova Mushtariy G‘anijon qizi

Andijon viloyati Marhamat tumani 12-maktab psixologi

Annotasiya: Maqolada o‘smirlik davrining psixologik jihatdan rivojlanish xususiyatlari, o‘smir shaxsining shakllanib, kamolotga erishish yo‘llari va unga ta’sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning ta’siri masalalari, olimlar tomonidan o‘smirlardagi qiyinchiliklar va bu qiyinchiliklarni sabablari haqidagi fikrlari berilgan, o‘smirlar bilan ishlash bo‘yicha tavsiyalar mavjud.

Tayanch so‘zlar: o‘smir, psixik o‘shish, kamolot, jinsiy balog‘at, xarakter, xususiyat, o‘z-o‘zini anglash, ota-ona, pedagog, psixolog, e’tibor, qiziqish.

Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtida amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishning muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi angelaydi.

Prezidentimiz e’tibor qaratgan yoshlarning kopchiligini o‘smir yoshidagi yoshlar tashkil etadi. O‘smirlik – bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi va bu davrda o‘smir tarbiyasiga e’tibor qaratish va bu tarbiya jarayonidagi qiyinchiliklarga yuzaki qaramaslikni taqozo etadi.

O‘smirlardagi asosiy o‘zgarishni nimalar tashkil etadi? O‘smir o‘zini asta – sekin katta odam deb qis qila boshlaydi, lekin ko‘p odat va xususiyatlari bolalarcha bo‘lib qoladi. Bu hissiyot kattalik hissi deb ataladi va o‘smirlikda asosiy psixologik yangilikdir. Bu his o‘smirda o‘ziga, atrofga muhitga, odamlarga nisbatan yangi hissiy pozitsiyani yuzaga keltiradi. U bolalar xulq-atvorini kattalar xulqi va qadriyatlariga qayta orientatsiya qila boshlaydi. O‘smir o‘z huquqlari doirasini kengaytiradi, kattalarni esa cheklashni xohlaydi. O‘smirlar bilish jarayonlarida ham o‘shish kuzatiladi. O‘smirning qiziqishlari ortadi, bilish faoliyati maktab programmasidan tashqariga chiqadi, mustaqil o‘qiy boshlaydi. Uning tafakkurida tanqidiylik, mustaqillik hosil boladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘quv materilallarini taqqoslashni, mavhumlashtirishni, o‘z fikrini tog‘ri, ravon va aniq ifodalash yo‘lini tshuntirib berishlari lozim. O‘smirlarning o‘quv

faoliyatida, o'quv materialini o'zlashtirish darajasida, umumiy intellektual rivojlanishida turli darajadagi o'quvchilarni uchratish mumkin.

Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi. J.Piajening ta'kidlashicha, "Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Ma'lumki, o'smirlik davrida o'smirning "meni" qaytadan shakllana boradi. Uning atrofidagilari ayniqs, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlari yo'nalishi keskin o'zgaradi. O'smir yoshdagi bolani birinchi galdagi intilishi, u o'zini endi kichkina bola emas, balki katta bolib qolganligini atrofidagilarga ishonitirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan o'smir shunday qilishga haqqi borligiga o'zini-o'zi ishonitiradi, chunki men endi "katta bo'lib qoldim" deb o'ylaydi. Shuning uchun ham psixologlar "katta bolib qolganlik tuyg'usi" ni shaxsning o'smirlik yoshdagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladlar. L.S.Vigotskiy o'smirlik davrida qiziqishlarining o'zgarishiga bog'liq ravishta ikki fazani (salbiy va ijobiy) ajratib ko'rsatgan. Salbiy faza ilgarigi qiziqishlarining so'nishi va yangi dastlabki jinsiy qiziqishlarning paydo bolishi bilan bog'liq. Bunda quyidagi salbiy xulq-atvor ko'rinishlari namoyon bo'ladi: ish qobilyatining, o'zlashtirishining pasayishi, o'smirning qopolligi va yuqori qo'zg'aluvchanligi, uning o'zidan qoniqmasligi va xavotirlanish va boshqalar. Ijobiy faza keng, chuqur yangi qiziqishlarining paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. O'smirda boshqalarning va o'zining psixologik kechinmalariga qiziqish paydo bo'ladi. O'smirlik davridagi inqiroz - o'smir kechinmalari, uning strukturasi, mazmunining qat'iy o'zgarishi, buzilishidir.

O'smirlik yoshida bolaning hayot sharoitlari va faoliyati ancha o'zgaradi, ruhiyatining qayta qurilishi roy beradi. Tengqurlari bilan muomala qilishning yangi shakllari paydo bo'ladi. Jamoada o'spirinning ijtimoiy maqomida o'zgarishlar ro'y beradi, ota-onalar va ustozlar tomonidan unga talablar kuchayadi. Bu yoshda o'spirinning vaqtinchalik oila va maktabda ruhiy ajralishi sodir boladi. O'spirinnig shakllanishida ota-onaning ahamiyati pasayadi. Odatda u rasmiy jamoa va norasmiy muomila guruhini tanlash bilan band boladi va oxir oqibat o'zini qulay sezadigan, unga hurmat bilan munosabatda bolinadigan guruhni tanlaydi. Bu sport, texnika togaragi bolishi mumkin. Shu bilan birga bu guruh o'smirlarning yig'ilishib, ichibchekib o'tirishidagan yerto'la ham bolishi mumkin. Bu yoshda o'smirlarning kattalar xususan ota-onalar bilan muammolari paydo boladi. Ota-ona o'z farzandiga yosh bolaga bolganday qarashadi, bola esa bu g'amxorlikdan chiqib ketmoqchi boladi. Shuning uchun uning kattalar bilan munosabatida ko'p nizolar kelib chiqadi, bolada kattalar fikrlariga tanqid bilan qarash kuchayadi. Kattalar bilan munosabatlar xarakteri ham o'zgaradi: bo'ysunish pozitsiyasidan bola tenglik pozitsiyasiga o'tmoqchi bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida tengdoshlar bilan ham o'zaro munosabatlarning xarakteri o'zgaradi. O'spirinda kattalik hissi tug'iladi va hissiyot mustaqil bolishiga intilish, kattalarning xohish istaklariga qarshi chiqishida namoyon boladi. Kichkina bolaga qaraganda o'spirinning qiziqishlari ancha o'zgaradi. Ijodiy faoliyatiga intilish bilan bir qatorda o'spiringa qiziqishlarining beqarorligi ham xosdir.

O'spirinlik yoshining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratsak bo'ladi:

1. Emotsional voyaga yetmaganlik;
2. O'z xulq-atvorini to'liq nazorat qila olmaslik;
3. O'z ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyat va xoxishlarni to'g'ri baholay olmaslik;
4. Katta bo'lishga intilish;

O'spirin yetarlicha voyaga yetgan shxas emas. U insonning eng muhim xislatlari va jihatlari shakllanishi bosqichida bo'lgan shaxsdir. Bu bosqich bolalik va kattalik o'rtasidagi davrdir. Shaxs hali o'zini katta deb hisoblashi uchun yetarli rivojlanmagan, biroq shu bilan birga atrofdagilar bilan munosabatga kirishishi va o'z harakatlarida ijtimoiy norma va qoidalariga amal qilishi uchun yetarli rivojlangan.

O'spirin aqilli qaror qabul qilishga ongli harakatlar sodir etishga va ular uchun axloqiy va huquqiy jihatdan mas'ul bo'lishga qodir. Shuni takidlash joizki, o'spirin o'z xatti-xarakatlari uchun huquqiy javobgarlikka tortiladigan shaxsdir. Garchi qonunt voyaga yetmaganlarning ijtimoiy psixologik rivojlanishini inobatga olib, ular uchun cheklangan javobgarlikni belgilasa ham katta o'spirinlik va o'smirlik davrini shaxsiy javobgarlik bilan xarakterlanadigan yosh deb qabul qilsak biladi. Inson umrining o'smirlik bosqichida, bizningcha, asosan ikkita xatarli jihat paydo bo'ladi. Uning bittasi - kattalarga taqlid qilish, ikkinchisi - o'smirning oilada va maktabdagi nazoratdan chetda qolish. Shu ikki jihat katta yoshdagi odamlar e'tiboridan tashqari, o'z oqimida, maqsadga muvofiq, tarzda kechadigan bolsa, oqibat tarbiyasi qiyin deb ataluvchi o'smirlar paydo bolishiga olib keladi. Birinchi jihatni tahlil qilib ko'raylik, chunonchi, o'smirlikning bosqichidagi o'g'il va qizlarda ilk "kattalik" hissi yuzga keladi. Bu yoshdagi o'smir munosabat uslubini o'zgartiradi, axloq mazmuni ham keskin o'zgaradi. Kattalarning tashqi qiyofasi, yurish-turishi, ko'zga tashlanadigan ayrim tomonlari o'smir shu davriga tezroq yetish istagini uyg'otadi. Mo'daga qiziqish, o'ziga oro berish, o'zgacha "madaniy" hordiq chiqarish, mulozamat qilishga intilish kabilar. Ular kopincha talablariga, katta yoshdagi kishilarga, televizor va kinolarda ko'rganlarga taqlid qiladi. O'z tasavurrida nimani ommabob hisoblasa, huddi shu narsani namuna tarzda qabul qiladi. O'smirda o'zinio'zi va o'zgalarni baholash mezoni anashu tariqa yuzaga keladi. Shuning uchun unda yangi his-tuyg'ular, orzu umidlar, sevgi haqidagi kitob sotib olish holatlari ko'zga tashlanadi. Psixologiya fanida inson xulq-atvoridagi o'zgarish, goho chetga og'ish

hodisasi ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi haqida umumiy qonuniyat mavjud. Jahon psixologlari olib borgan tadqiqotlar tarbiyasi qiyin o'smirlarning paydo bo'lishiga ijtimoiy muhitdan tashqari pedagogik psixologik omillar ham sabab bolishini ko'rsatmoqda. O'smirlar harakatlarini izchil va uzluksiz o'rganishlar ulardagi chetga og'ish ko'rinishlari turlicha bo'lishini takidlamogda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.X Jalilova, N.A G'ayibova. "Umumiy diagnostika". Toshkent 2018
2. Jalilova S.X. "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi". Toshkent 2017
3. Z.T.Nishanova, N.G Kamilova, D.U Abdullayeva, M.X.Xolnazarov. "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya". Toshkent-2018.

IJTIMOIY ISH XODIMINING YOSHLARNI IJTIMOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISHDAGI KASBIY FAOLIYATI

Norjigitova Xumora Norjigit qizi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi; e-mail: norjigitovaxumora3@gmail.com

Esirgapova Nargiza Oblaqul qizi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi; e-mail: esirgapovanargiza@gmail.com

Ilmiy rahbar: Ishmurodov Bunyodjon Farxodvich

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Mamlakatimizda yoshlar masalalariga alohida e'tibor berilishi natijasida turli yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida shakllanayotgan yangi tipdagi yoshlar guruhlarining ijtimoiy-siyosiy faolligini o'rganishda katta tajriba to'planmoqda. Xalqimizning mustaqillik yillari davomida erishib kelayotgan demokratik tamoyillar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili ekanligini chuqur anglay boshlashi bilan ijtimoiy ongi va tafakkurida tub o'zgarishlar yuz berib, siyosiy va huquqiy madaniyati o'sib kelmoqda. Bu borada yoshlarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni siyosiy jarayonlarda qonuniy ishtirokini ta'minlash, nodavlat notijorat tashkilotlardagi ishtirokini qo'llab-quvvatlashga bugun alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: yoshlar, guruh, ijtimoiy-siyosiy, huquq, nodavlat notijorat tashkilot, ijtimoiy faollik, yoshlar manfaatlari, tadqiqot jaxon tajribasi.

PROFESSIONAL ACTIVITY OF A SOCIAL WORKER IN SOCIAL-LEGAL PROTECTION OF YOUTH

Abstract: As a result of paying special attention to youth issues in our country, scientific research works are being carried out in various directions. Based on this, great experience is being gathered in the study of social and political activity of new type of youth groups that are being formed in the conditions of Uzbekistan. As the society began to deeply understand that the democratic principles achieved during the years of independence of our people are an important factor of socio-economic development, fundamental changes are taking place in the social consciousness and thinking, and the political and legal culture is growing. In this regard, special attention is being paid today to increasing the socio-political activity of our youth, ensuring their legal participation in political processes, and supporting their participation in non-governmental, non-commercial organizations.

Key words: youth, group, socio-political, law, non-governmental non-profit organization, social activism, youth interests, research world experience

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СОЦИАЛЬНОГО РАБОТНИКА В СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЕ МОЛОДЕЖИ.

Аннотация: В результате уделения особого внимания проблемам молодежи в нашей стране проводятся научно-исследовательские работы по различным направлениям. На основе этого накапливается большой опыт изучения общественно-политической деятельности молодежных групп нового типа, формирующихся в условиях Узбекистана. По мере того, как общество начало глубоко понимать, что демократические принципы, достигнутые за годы независимости нашего народа, являются важным фактором социально-экономического развития, происходят коренные изменения в общественном сознании и мышлении, растет политическая и правовая культура. В этой связи особое внимание сегодня уделяется повышению общественно-политической активности нашей молодежи, обеспечению ее легального участия в политических процессах, поддержке ее участия в неправительственных, некоммерческих организациях.

Ключевые слова: молодежь, группа, общественно-политическая, право, негосударственная некоммерческая организация, социальный активизм, интересы молодежи, исследовательский мировой опыт.

KIRISH.

Ijtimoiy ishda muhim tushunchalardan biri mijoz tushunchasidir. Ijtimoiy xodim xizmat ko`rsatadigan mijozlar guruhi quyidagilarni o`z ichiga oladi.:

- oilalar, shu jumladan to`liq bo`lmagan, huquqbuzarlik, zo`ravonlik yoki boshqa sabablar bilan uydan ketish natijasidagi jiddiy nizolar mavjud oilalar;
- o`zaro munosabatlari qoniqarli bo`lmagan oila va juftliklar;
- jiddiy nikoh ziddiyatlari mavjud juftliklar;
- ishsizlik, boquvchining yo`qligi, jismoniy layoqatsilik, ta'lim olmaganlik, boshqa omillar natijasida yetarli daromadga ega bo`lmagan individ va oilalar;
- qonunni buzgani uchun oldin jazo olgan shaxslar va ularning oilalari;
- turmushga chiqmagan homilador o`smir qizlar;
- turli daraja va shakldagi kasallik, shuningdek invalidik qiynaydigan individ va oilalar;
- doimiy ravishda spirtli ichimliklar mahsulotlari va narkotiklar iste'mol qiluvchi shaxslar va ularning oilalari;
- ota-onasi qaramog`idan tashqarida bo`lgan bolalar va ularning vasiylari;

- qochoqlar, immigrantlar, imkoniyat va resurslari kam bo'lgan ozchilik vakillari, kamsitish va irqchilik qurbonlari;
- mehnat bilan band bo'lmaganlar va ularning oila a'zolari;
- doimiy qarashga va e'tiborga muhtoj yoshi kattalar;
- o'z muammolarini mustaqil hal qila olmaydigan shaxslar;
- ta'lim muassasasining turli shakllarida muammoga ega bolalar va ularning oilalari
- har xil sabablar bilan bog'liq kuchli stressga uchragan shaxslar, uyidan qochib ketgan bolalar va boshqalar.¹

Aynan Ijtimoiy ish xodimining yoshlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishdagi kasbiy faoliyati haqida gap yuritadigan bo'lsak ijtimoiy xodim o'zining kasbiy malakasidan kelib chiqqan holda yoshlarga ijtimoiy-huquqiy himoya qilishga doir ishlar, texnologiyalar ishlab chiqadi.

ASOSIY QISM.

Ijtimoiy ish xodimi jamiyatdagi yoshlarni va bolalarni har taraflama himoya qilgan holda ularni qo'llab-quvvatlashlari zarur. Ijtimoiy ish xodimi bu qo'llab-quvvatlash davomida bizdan ko'ra oldinroq mustaqillikka erishgan, rivojlangan mamlakatlardan tajriba olgan holda yoshlarni ham ijtimoiy ham huquqiy himoya qilishlari zarur. Bularga misollar:

"Kinder und Jugendhilfegesetz (KJHG)" (Bolalar va yoshlarni qimoya qilish kitobi), shuningdek, Ijtimoiy Kodeksning VIII kitobi (Sozialgesetzbuch VIII) sifatida ham tanilgan, Germaniyaning bolalar va yoshlar farovonligi xizmatlari uchun qonuniy asos bo'lib xizmat qiladi. Qonun bolalarga g'amxo'rlik va farovonlikning ko'p jihatlarini har tomonlama ko'rib chiqadi. U bolalar va o'smirlarning farovonligini ta'minlash, ota-onalar va vasiylarni bolalarni tarbiyalashda qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan. KJHG qamrab olgan asosiy sohalar quyidagilardan iborat:

- oilalarni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatish, masalan, oilaviy maslahat va ta'limda yordam;
 - bolalar va o'smirlarni qarovsizlik va zo'ravonlikdan himoya qilish;
 - homiylik va farzand asrab olish jarayonlarini osonlashtirish;
 - bolalar va yoshlarning rivojlanishi va integratsiyalashuviga ko'maklashish uchun ijtimoiy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirokini ta'minlash;
- KJHGning maqsadi bolalar va o'smirlarning keng qamrovli g'amxo'rlik, nazorat, ta'lim va ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishdir. Unda bolalar va ularning ota-onalari huquqlari hamda davlatning yoshlar uchun ijtimoiy xizmatlari majburiyatlari belgilab berilgan.

¹ Lex.uz

"**Jugendschutzgesetz**" (Yoshlar himoyasi qonuni) Germaniyadagi yoshlarni turli xil zararlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan qonunlardan biridir. Uning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

➤ Zararli odatlardan himoya: Ko'pincha ushbu qonun yoshlarni alkogol, tamaki mahsulotlari va narkotik moddalardan himoyalash uchun foydalaniladi. Bu qonun yoshlar uchun alkogol va tamaki mahsulotlarini sotib olish va iste'mol qilishning yosh cheklovlari kabi aniq qoidalarni belgilaydi.

➤ Media kontenti cheklovlari: Ushbu qonun yoshlar uchun zararli bo'lgan media tarkibini, shu jumladan kinofilmlar, video o'yinlar va boshqa media mahsulotlari uchun yosh cheklashlarini o'rnatish orqali yoshlarni himoya qiladi. Bu cheklashlar tarkibli xususiyatlariga qarab o'rnatiladi va yoshlarning ruhiy tarbiyasi va rivojlanishi uchun muhimdir.

➤ Yoshlarga qaratilgan reklamalar**²: qonun shuningdek yoshlar uchun zararli bo'lishi mumkin bo'lgan reklamalarni cheklashni ham nazarda tutadi. "Jugendschutzgesetz"(Yoshlar himoyasi qonuni) yoshlarni himoyalash sohasida Germaniyada yoshlarga imkon qadar keng qamrovli va samarali himoyani taqdim etishga qaratilgan qator qonuniy choralardan biri hisoblanadi.

"**Kinderschutzgesetz**" (Bolalar himoya qilish qonuni) bolalarni zo'ravonlik va suiste'mol holatlardan himoya qilish maqsadida yaratilgan qonun bo'lib, quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

➤ Profilaktika: Davlat va mahalliy organlar zo'ravonlik, bolalarni suiste'molini oldini olish bo'yicha tadbirlar va turli kompaniyalarni olib boradi. Bu tadbirlar jumlasiga jamoatchilik xabardorligini oshirish, ma'lumot va o'quv dasturlarini taqdim etish kiradi.

➤ Aniqlash va Aralashuv: Zo'ravonlik holatlar aniqlanganda, zarur aralashuvlar uyishtiriladi, bu orqali erta aniqlash va tezkor munosabat ko'rsatish mexanizmi hamda oliy darajadagi xavfsizlik ta'minlanadi.

➤ Har tomonlama yordam: Davlat va mahalliy organlar zo'ravonlik va suiste'mol qurboni bo'lgan bolalar va ularning oilalariga kerakli yordam, maslahat va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etadi.

➤ Hamkorlik: Bolalarni himoya qilishda ko'p tarmoqli yondashuvdan foydalaniladi, bu yondashuvda turli sektorlar hamkorlikda ishlaydi, jumladan ta'lim, sog'liqni saqlash, politsiya va fuqarolik jamiyati tashkilotlari.

➤ Qonuniy javobgarli: zo'ravonlik va suiste'mol holatlarida javobgarlikni ta'minlaydigan, qonuniy choralar ko'rishni nazarda tutadi. "Bolalar himoya qilish qonuni"ning asosiy vazifasi har bir bola xavfsiz, sog'lom va xotirjam muhitda o'sib-ulg'ayishi uchun shart-sharoit yaratishdan iborat.²

² Vernachlässigung in Deutschland Kinderdorfmutter / -vater werden SOSLängsschnittstudie <https://www.sos-kinderdorf.de/portal/>

Biz ijtimoiy soxa vakillari sifatida bu qonuniy hujjatlardan tajriba olgan holda mamlakatimizda ham aynan ijtimoiy sohaga qaratilgan qandaydur qonuniy hujjat yaratishimiz va shu hujjatdagi bantlarning barchasi mamlakatimizdagi barcha ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga yordam ko`rsatishga qaratilgan shakildagi hujjat ishlab chiqishimiz mumkin.

Xulosa.

Mamlakatimizda 2024 yil – Yoshlar va biznesni qo`llab-quvvatlash yili, deb e`lon qilindi. Bu yurtimiz yoshlarini mamlakatimiz ravnaqi yo`lidagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning eng faol ishtirokchilari ekanligidan darak beradi. Muhtaram Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev davlatimiz siyosatini, yoshlar bilan ishlashdagi eng dolzarb masalalarni ko`rsatib shunday ta`kidlaydi. —Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta`minlash, ularni o`qitish, mehnat qilishi, bilim olishi va qobiliyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqdamiz. Zero, butun xalqimiz qatori yoshlar – Yangi O`zbekiston bunyodkorlaridir³.

Yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalasi avvalo, jamiyatda qonun ustuvorligini ta`minlanishi, siyosiy islohotlarni izchil olib borilishi, fuqarolarning, birinchi navbatda yoshlarning unda faollik ko`rsatishi, qonunlarga itoat qilishi hamda o`z haq-huquqlarini yaxshi bilishiga bog`liq. Buyuk nemis faylasufi Gegel: —Axloqli bo`lmoq bu – qonun ustuvor davlatning fuqarosi bo`lmoqdir⁴, deb bejiz ta`kidlamagan edi.

Jamiyatda qonun ustuvorligi siyosiy hayotda tartib hamda uyg`unlikni, ijtimoiy taraqqiyotda barqarorlikni, adolatni ta`minlanishi vatandosh mutafakkirlarimiz qarashlarida ham yaqqol ko`zga tashlanadi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy —Fozil odamlar shahri asarida fozillar shahri hokimligida uch fazilat mujassam bo`lishi zarurligini ta`kidlaydi. Bular: donishmandlik; o`rnatilgan qonun va qoidalarni xotirada yaxshi saqlab qolish va ularga amal qilish; bir yoki bir necha sohaga taaluqli qonun qabul qilinmagan bo`lsa, bunday qonunni ijod qilish quvvatiga ega bo`lish.

Yuqorida o`rganilgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalasi bizga quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarni chiqarish imkoniyatini beradi.

- yoshlar bugun jamiyat ijtimoiy hayotimizning eng faol guruhi sifatida jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etmoqdalar. Ularning o`ziga xos muhim xususiyatlarini o`rganish va tahlil qilishda bevosita jamoatchilik muhokamalarini tashkil qilish va yoshlar orasida ommalashtirish mamlakatimiz taraqqiyotining rivojlanishi bo`yicha eng muhim dasturlar va rejalarni puxta ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

- yoshlarning ijtimoiy faolligi, siyosiy jarayonlardagi o`rni va rolini to`g`ri shakllantirishning eng samarali yo`li ularni kasbga to`g`ri yo`naltirish, mehnat

³ Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O`zbekiston strategiyasi. T.; —O`zbekiston||, 2021.-54 b

⁴ Г.В.Ф. Гегел. Философия права. М., 1990 г.

mentaliteti asosida kasb-hunar egallashlariga yordamlashishdir. Mehnat bilan bog`lanmagan ijtimoiy-siyosiy faollik amalda yoshlarni siyosiy faolligini noto`g`ri shakllanishiga kuchli salbiy ta`sir ko`rsatadi.

- yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarning roli mutasil ortib bormoqda. Bu birinchi navbatda mazkur doiradagi tashkilotlar faoliyatini kuchaytirish bilan bog`liq. Bunday tashkilotlarning faoliyatini uzluksiz rivojlantirish, yoshlarni turli manfatlari va qiziqishlarini muntazam o`rganish ularni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshib borishiga katta yordam beradi.

- yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda siyosiy partiyalarning roli yildan-yilga ortib bormoqda. Bu jarayonda —yoshlar qanoti va —siyosiy ta`lim markazlari bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirilayotgan amaliy ishlarni ilmiyamaliy o`rganish, zaruriy tahlillar va xulosalar chiqarish maqsadga muvofiq bo`ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O`zbekiston strategiyasi. T.; —O`zbekiston, 2021.-54 b
2. Г.В.Ф. Гегел. Философия права. М., 1990 г.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O`zbekiston
4. Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi
5. PF- 4947-son Farmoni.
6. LEX.UZ
7. Vernachlässigung in Deutschland Kinderdorfmutter / -vater werden
SOSLängsschnittstudie <https://www.sos-kinderdorf.de/portal/>

OG'IR HAYOTIY VAZIYATLARDA FUQOROLARNI IJTIMOIIY QO`LLAB- QUVVATLASH SHAKLLARI

Norjigitova Xumora Norjigit qizi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi; e-mail: norjigitovaxumora3@gmail.com

Ung'alova Munisa Saydazim qizi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi; e-mail: ungalovamunisa52@gmail.com

Esirgapova Nargiza Oblaqul qizi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi; e-mail: esirgapovanargiza@gmail.com

Ilmiy rahbar: Ishmurodov Bunyodjon Farxodvich

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbekistonda va boshqa rivojlangan mamlakatlarda og'ir hayotiy vaziyatlarda fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash shakllari bo'yicha, tarixda ham og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxslarga bobokalonlarimiz tarafidan ko'rsatilgan yordamlar yuzasidan ma'lumotlar berib o'tilgan. Bugun aholi ijtimoiy himoyasi – salomatligidan tortib ularning uy-joy bilan ta'minlanish darajasigacha hukumat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Bu borada ayniqsa, aholining ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamiga qaratilayotgan e'tibor yurtimizda inson qadrini yuksaltirishning muhim shartlari, aholini ijtimoiy ko'mak ko'rsatish bo'yicha va har bir yil nomining og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolarga yordam hamda og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolishning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumotlar berib borilgan.

Kalit so'zlar: Og'ir hayotiy vaziyat, fuqarolarga yordam, ijtimoiy ko'mak, texnologiya, yil nomlari, yil dasturlari, bilim va ko'nikmalar, hamkorlik, mamlakat, tarixiy.

FORMS OF SOCIAL SUPPORT TO CITIZENS IN CRITICAL SITUATIONS

Annotation: This article provides information on the forms of social support for citizens in difficult life situations in Uzbekistan and other developed countries, as well as the help provided by our grandfathers to people who have fallen into a difficult life situation in history. Today, the government is paying attention to the social protection of the population - from their health to the level of providing them with housing. In this regard, the attention paid to the segment of the population in need of social assistance is an important condition for raising human dignity in our country, providing social assistance to the population, and providing assistance to citizens who fall into a

difficult life situation every year, as well as information was given about the work being done to prevent getting into a life situation.

Key words: Difficult life situation, help to citizens, social assistance, technology, names of the year, programs of the year, knowledge and skills, cooperation, country, historical.

ФОРМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ ГРАЖДАН В КРИТИЧЕСКИХ СИТУАЦИЯХ

Аннотация: В данной статье представлена информация о формах социальной поддержки граждан, оказавшихся в трудной жизненной ситуации в Узбекистане и других развитых странах, а также о помощи, оказываемой нашими дедами людям, попавшим в тяжелую жизненную ситуацию в истории. Сегодня правительство уделяет внимание социальной защите населения – от его здоровья до уровня обеспечения его жильем. В связи с этим внимание, уделяемое той части населения, которая нуждается в социальной помощи, является важным условием повышения человеческого достоинства в нашей стране, оказания социальной помощи населению, оказания помощи гражданам, каждый раз попадающим в трудную жизненную ситуацию. году, а также дана информация о проводимой работе по предотвращению попадания в жизненную ситуацию.

Ключевые слова: Тяжелая жизненная ситуация, помощь гражданам, социальная помощь, технологии, имена года, программы года, знания и навыки, сотрудничество, страна, историческое.

KIRISH

Mamlakatimizda fuqarolarning erkinlik va shaxsiy daxlsizlikka doir huquqlarini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda, shaxsga o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun samarali mexanizmlar yaratilgan, umuman jamiyat manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlaydigan sud-huquq tizimi samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikada og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan jismoniy, axloqiy yoki mulkiy zarar yetkazish natijasida sodir etilgan huquqbuzarliklar tufayli jabr ko'rgan shaxslarga ko'maklashish va har tomonlama yordam ko'rsatish bo'yicha infratuzilmani yaratish alohida ahamiyatga ega.¹ Mamlakatimizda og'ir hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan oilalarga, bolalarga, yoshlarga, xotin- qizlarga alohida ko'mak va yordamlar ko'rsatilib kelinmoqda. Har bir og'ir vaziyatga tushib qolgan fuqorolar bilan individualni ishlagan holda ularni og'ir hayotiy vaziyatdan olib chiqish borasida ishlar amalga oshirilmoqda. Aynan mamlakatimizda ijtimoiy ko'makka muxtoj shaxslarni har tomonlama qo'llab –

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi PQ-3827-son qarori

quvvatlash, ularga moddiy, ma`naviy, psixologik va pedagogik yordamlar ko`rsatilmoqda.

Xalqimiz o'y-hayollari ezgulikka yo`g`rildi. Yurtdoshlarimizning dunyoqarashi, tafakkuri yuksalib, farovonligi, turmush tarzi yanada yaxshilandi, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Bugun aholi ijtimoiy himoyasi – salomatligidan tortib ularning uy-joy bilan ta'minlanish darajasigacha hukumat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Bu borada, ayniqsa, aholining ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamiga qaratilayotgan e'tibor yurtimizda inson qadrini yuksaltirishning muhim shartlaridan biridir.

Ijtimoiy ko'mak ko'rsatish bo'yicha mamlakatimizda boshqa mamlakatlar shu jumladan tarixdagi tajribalardan foydalangan holda ishlar amalga oshirilib borilmoqda.

ASOSIY QISM.

Og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan fuqorolarni har taraflama ijtimoiy himoya qilinib kelinmoqda. Ijtimoiy himoyaga alohida e'tibor qaratadigan bo'lsak.

Ijtimoiy himoya - keng ma'noda — mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; tor ma'noda — davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rliqi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to'xtovsiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat. Ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishlari: erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko'rsatishni ta'minlash; ish bilan bandlik, kasb tanlash, o'qish va bilim olish; daromadlarning kafolatlanishi; har bir fuqaroning o'z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo'lishi; iste'molchilar himoyasi, iste'molchilar jamiyatlari; tovarlar va xizmatlar sifati, iste'mol kafolatini ta'minlash; aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish; ijtimoiy ta'minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta'minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish.²

Rivojlangan demokratik jamiyatda ijtimoiy himoya vazifalarini bajarishni davlat o'z zimmasiga oladi. „ Ijtimoiy himoya “ tushunchasi birinchi marta 1935-yilda AQShning „Ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha qonun“ ida qo'llanilgan, keyinchalik Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalarida bu tushuncha mazmuni mukammallashtirilgan. AQSH, Kanada, Shveysariya kabi mamlakatlarda Ijtimoiy himoyaning ko'pgina muammolari hal etilgan, lekin yechimini topmagan muammolari ham juda ko'p. Shunga qaramay, bu mamlakatlar tajribalaridan foydalanish ahamiyatlidir.³

² Lex. uz

³ " Социальная работа как феномен культуры" Э.П. Агапов. 1999.

Og`ir hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan fuqorolar deb aynan hayotida ma`lum bir qiyinchiliklarga tushib qolgan insonlarga aytiladi. Misol uchun nogironligi bo`lgan fuqorolar, ajrim yoqasiga kelib qolgan oila a`zolari va qiyin vaziyatga tushib qolgan bolalar, yetim bolalar, deviant xulq- atvorli shaxslar va shu kabi shaxslar.

Aynan mana shu toifalar bilan ishlash borasida keng ko`lamli ishlar amalga oshirilib borilmoqda. O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan oshlab mamlakatdagi fuqorolarni bosqichma bosqich ahvolini yaxshilash bo`yicha ishlar amalga oshirilib kelmoqda. Aynan yillarning nomi ham mana shu yil qilinadigan chora- tadbirlar hisoblanadi. Bu yillar orasida fuqorolarni og`ir hoyotiy vaziyatlardan olib chiqish yuzasida nomlangan yillar ham bor bulardan.

1997-yil (Inson manfaatlari yili), 1999-yil (Ayollar yili), 2000-yil (Sog`lom avlod yili), 2001-yil (Ona va bola yili), 2002-yil (Qariyalarni qadrlash yili), 2003-yil (Obod mahalla yili), 2004-yil (Mehr-muruvvat yili), 2007-yil (Ijtimoiy himoya yili), 2008-yil (Yoshlar yili), 2012-yil (Mustahkam oila yili), 2014-yil (Sog`lom bola yili), 2015-yil (Keksalarni e`zozlash yili), 2016-yil (Sog`lom ona va bola yili), 2017-yil (Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili), 2019-yil (Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili), 2021-yil (Yoshlarni qo`llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili), 2022-yil (Inson qadrini ulug`lash va faol mahalla yili), 2024-yil (Yoshlar va biznesni qo`llab quvvatlash yili). Mana shu yil nomlari orqali mamlakatimizda har yili turli og`ir ijtimoiy vazitatlarni oldini olish bo`yicha chora- tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak tarixiy jarayonlarni o`rganamizmi, boshqa mamlakat tajribalarini o`rganamizmi, barcha jabhalarda fuqorolarning hayotini yaxshilash bo`yicha har doim turli xildagi iashlar amalga oshirilib kelmoqda. Aynan og`ir vaziyatga tushib qolgan fuqarolar bilan ishlash bo`yicha asosiy shakllar mavjud emas. Lekin ish olib borish texnologiyalarini topishimiz mumkin.

Og`ir hayotiy vaziyatlarda fuqorolarni ijtimoiy qo`llab-quvvatlash shakllari bir necha yo`l bo`lishi mumkin.

1. **Ijtimoiy xizmatlar va yordam ko`rsatish:** Davlat va jamoat fuqarolarga ijtimoiy himoya ta`minlash uchun imkoniyatlar yaratish uchun muammolarni o`rganish va ularni qo`llab-quvvatlash lozim. Bu, ma`lum bir xizmatlar tarmog`ini (masalan, yengil ish topish, yengil ish bilan bog`liq masalalar, va psixologik yordam) o`rnatish, yoki xavfsizlik va xavfni oldini olish uchun ko`mak ko`rsatishni o`z ichiga oladi.

2. **Xavfsizlik va ko`nikmalar:** Og`ir hayotiy vaziyatlarda, fuqarolarni himoya qilish uchun ko`nikmalar va xavfsizlik vositalarini taqdim etish juda muhimdir. Bu ko`nikmalar, masalan, xavfsizlik kurslari, o`zini himoya qilishning amaliy usullari

(yengil ish va yengil ish bilan bog'liq masalalar), shuningdek, mahalliy jamoatning xavfsizlik bo'yicha qo'llab-quvvatlash tadbirlari bo'lishi mumkin.

3. **Davlat dasturlari va boshqarish tadbirlari:** Davlat va mahalliy hokumatlar og'ir hayotiy vaziyatlarda fuqorolarni himoya qilish uchun qonuniy va boshqarish tadbirlarini amalga oshirishi kerak. Bu, og'ir jamoatlik vaqtincha yechimlarni taqdim etish, qo'shimcha moliyaviy yordam berish, yengil ish tuzilmasi kuzatish, va qonun bilan tasdiqlangan davlat xavfsizlik va himoya tadbirlarini o'rnatishni o'z ichiga oladi.

4. **Jamoat yordam va hamkorlik:** Og'ir hayotiy vaziyatlarda, jamoat tashkil etish va hamkorlik qilish juda muhimdir. Bunda, mahalliy jamoat, diniy jamaatlar va boshqalar fuqorolarni ijtimoiy, ma'naviy va ma'lumotlar bo'yicha qo'llab-quvvatlash, ko'mak ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash uchun birgalikda ishlay oladi.

5. **Psixologik yordam:** Og'ir hayotiy vaziyatlarda, fuqorolar ko'p uchrashgan kuchli psixologik bosqichga duch kelishi mumkin. Bu bosqichda, fuqorolarga psixologik yordam ko'rsatish, maxsus mutaxassislarning yordamidan foydalanish, yoki jamoat yordamining ko'rsatishlari foydali bo'lishi mumkin.⁴

Har bir mohiyatlarda, og'ir hayotiy vaziyatlarda fuqorolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash shakllari ko'rsatilgan fuqorolarning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlariga mos ravishda bo'lishi kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. " Ijtimoiy ish asoslari" M. X. Ganiyeva. Toshkent 2012
2. " Социальная работа как феномен культуры" Э.П. Агапов. 1999.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi PQ-3827-son qarori
4. LEX.UZ

⁴ " Ijtimoiy ish asoslari" M. X. Ganiyeva. Toshkent 2012

OILA FAROVONLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Esirgapova Nargiza Obloqul qizi

Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo`rg`on filiali

Ij-21-17-Guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Abbasova Maftuna Subxonovna

Samarqand davlat Universiteti Kattaqo`rg`on filiali

Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasida dotsenti.

Annotatsiya. Ushbu maqola oila farovonligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qiladi va ushbu omillarning turli jihatlarini yoritadi. Maqolada iqtisodiy holat, ta'lim darajasi, salomatlik, ijtimoiy munosabatlar va yashash sharoitlari kabi asosiy omillar ko'rib chiqiladi. Har bir omilning oila farovonligiga qanday ta'sir qilishi va ularning bir-biri bilan o'zaro aloqasi tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari oila farovonligini oshirish uchun qaysi sohalarga e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi. Maqola xulosalariga ko'ra, oila farovonligini ta'minlash uchun kompleks yondashuv talab qilinadi, chunki turli omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq va ularni yaxlit holda ko'rib chiqish zarur.

Kalit so'zlar: oila, ijtimoiylashuv, rivojlanish, farovonlik, omillar, adaptatsiya, bola tarbiyasi, funktsiya, ma'naviyat, qobiliyat, er-xotin, jamiyat, ta'lim-tarbiya, kodeks, individlar, urf-odat, an'ana, farzand, jamiyat.

Kirish. Oila har bir jamiyatning asosiy negizi hisoblanadi. Tabiiyki, uning mustahkamligi jamiyat taraqqiyotini belgilab beradi.

Oila — nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi.

Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi.¹

Oilaning rivojlanishi uning mustahkam bo'lishi tashqi omillarga ham bog'liq bo'ladi. Oila farovonligi bir qator omillar ta'sirida shakllanadi va ular bir-biri bilan

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/oila>

chambarchas bog'liqdir. Quyida oila farovonligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

1. Moliyaviy barqarorlik. Oila farovonligi uchun moliyaviy barqarorlik muhim ahamiyatga ega. Barqaror daromad manbai va moliyaviy xavfsizlik oilaning asosiy ehtiyojlarini qondirish, farzandlar ta'limi va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishga yordam beradi. Moliyaviy muammolar esa ko'pincha oilaviy nizolar va stress manbai bo'lib xizmat qiladi.

2. Sog'liq. Sog'liq – oila a'zolarining jismoniy va ruhiy holati oila farovonligining yana bir muhim omilidir. Sog'lom hayot tarzi, muntazam tibbiy ko'rik va sog'lom ovqatlanish oilaning uzoq muddatli farovonligini ta'minlaydi. Kasalliklar esa nafaqat moliyaviy qiyinchiliklarni, balki ruhiy bosimni ham keltirib chiqarishi mumkin. 3. Ma'naviy va madaniy qadriyatlar. Oila ichidagi ma'naviy va madaniy qadriyatlar oilaviy munosabatlarning mustahkam bo'lishiga yordam beradi. Ota-onalar farzandlariga an'analar, urf-odatlar va axloqiy qadriyatlarni o'rgatib, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadilar. Bu esa o'z navbatida oila ichidagi hamjihatlik va o'zaro hurmatni mustahkamlaydi.

4. Ta'lim va ma'lumot darajasi. Ta'lim – oila farovonligining asosiy omillaridan biridir. Ta'lim va ma'lumot darajasi yuqori bo'lgan ota-onalar o'z farzandlariga ham yaxshi ta'lim berishadi, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi. Shuningdek, ta'lim darajasi yuqori bo'lgan shaxslar ko'proq iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lishadi, bu esa oila farovonligini oshiradi. Aniqlanishicha, ota-onalar bolalar bilan suhbatlashishga, o'ynashga qancha vaqt ajratsa, bolalar shunchalik yaxshi rivojlanadi. Boshqa tomondan, ota-onalari yoki ulardan biri bilan muloqot qilish imkoniyatidan mahrum bo'lgan bolalarda sezgirlik kuchayganligi va tengdoshlari bilan aloqa o'rnatishda qiyinchiliklarga duch kelganligi isbotlangan. Bolaning rivojlanishi uchun jiddiy xavf uning fiziologik ehtiyojlarini hissiyotsiz, hatto to'laqonli bo'lsa ham, bir vaqtning o'zida aloqa, mehr, iliqlik va yaxshi so'zlarning etishmasligi bilan qondirishdir. Faqat ota-onalarning bola bilan doimiy aloqasi chuqur hissiy aloqalarni yaratishga yordam beradi, o'zaro quvonchni keltirib chiqaradi.

5. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi – yaqin qarindoshlar, do'stlar va jamoa tomonidan ko'rsatiladigan yordam va qo'llab-quvvatlash oilaning farovonligi uchun katta ahamiyatga ega. Bu turli qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi va oilaning stress darajasini kamaytiradi.

6. Oilaviy munosabatlar. Oila ichidagi munosabatlarning sog'lom va ijobiy bo'lishi ham farovonlikning muhim omillaridan biridir. O'zaro ishonch, hurmat, tushuncha va muloqot oilaviy muhitni sog'lomlashtiradi. Noto'g'ri munosabatlar va nizolar esa oilaviy hayotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida sanab o'tilgan

omillar oilaning farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega. Ularning har biri o'zaro bog'liq bo'lib, birining yomonlashuvi boshqalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, oila farovonligini ta'minlash uchun barcha sohalarida balans va barqarorlikni saqlash muhimdir. Faqatgina shunday yondashuv oilaning uzoq muddatli va barqaror farovonligini ta'minlashga yordam beradi. Bundan tashqari oilaning farovon bo'lishi, baxtli oila bo'lishi uchun psixologlar quyidagi tavsiyalarni bergan:

-Baxtli er-xotinlar bir-birlari bilan har qanday mavzuda suhbatlashishi va maslahatlar berishi kerak,

-Er-xotinlar bir-biriga va farzandlariga tez-tez yaxshi ko'rishini aytishi va bag'riga bosishi kerak,

-Ijobiy kayfiyat va har narsani yaxshi tomonlarini ko'ra bilish oilaviy hayotda muhim rol o'ynaydi,

-Uyda shunday sharoit yaratish kerakki, inson uyga kirishi bilan bahri-dili yayrasin,

-Oilaviy dasturxon atrofida to'planib ovqatlanish ham baxtli va mustahkam oilalarga hos xususiyatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi oilaga bag'ishlanib, oilaning ijtimoiy maqomi aniq va ravshan belgilab qo'yilgani dunyo davlatlarining bosh qonunlarida uchraydigan kamyob voqelikdir.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 76-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan o'zbekiston respublikasining oila kodeksi qabul qilingan. Shuningdek, nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanishi, ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanligi, farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi, onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi konstitutsiyamizda o'z ifodasini topgan.

Qolaversa, asosiy qonunimizning 80-moddasida voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburligi belgilangan.² Shuni ham ta'kidlashimiz kerakki, oilada ota-ona o'z farzandini oq yuvib oq tarab voyaga yetkazadi. Ularni har tamonlama yetuk qilib tarbiyalaydi, voyaga yetgandan keyin esa ota-onamizga g'amxo'rlik qilishimiz barchamizning burchimiz hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimov ham bu masalaga alohida e'tibor qaratganligi bejiz emas, albatta

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 12-bet

"oilaga e'tiborimizni tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo'llab-quvvatlash bugungi kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun naqadar muhim va dolzarb ekanligini yaxshi tushunishimiz va anglashimiz darkor.³ Shunday ekan oila muqaddasligini hozirgi yosh avlodga singdirib borishimiz lozim. Yangi oila qurish ostonasida turgan yoshlarni oilaga tayyorlashimiz, ularga maslahatlar berishimiz lozim. Shu orqali oilalarning mustahkamligini ta'minlashimiz, hozirgi kunda ko'payib borayotgan ajrimlar sonini kamaytirishimiz mumkin. Oila qancha mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi va rivojlanadi. Shuning uchun ham Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1994 yildan e'tiboran har yili 15 may kunini Xalqaro oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilgani bejiz emas. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 16-moddasida shunday deyilgan: Balog'atga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab biror bir cheklovlarsiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o'tayotganlarida ham, nikohda bo'lgan vaqtda ham va nikoh bekor qilinayotganda ham bir xil huquqlardan foydalanadilar. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Oila tarbiyasida yutuqlarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, oila tarbiyasi bo'yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir. Har bir ota-ona oila tarbiyasida o'zlarining burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan "ma'naviy kasal" insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada ota-onalar "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (a.s.): "Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir", deya marhamat qilganlar. Bolalarni intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda "Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring" deb ta'kidlangan.⁴ Oilaning muhitiga ijtimoiy omillarning katta ta'siri bo'lib, ijobiy va

³ <https://fayllar.org/oila-va-uning-vazifalari-v2.html>

⁴ <https://religions.uz/uz/news/detail?Id=12>

salbiy taraflari mavjud bo'lib farzandning ijtimoiylashuvida katta ahamiyat kasb etadi va tarbiyasining aksar holatlarda deviantlikka olib kelishga muhim sabab bo'lib qoladi. Sotsializatsiya jarayoni butun umr davom etadigan jarayon hisoblanib, shaxsning komil inson bo'lishiga ta'sir etadi. Maktabgacha ta'lim, maktab, mahalla, oliy ta'lim, ijtimoiy muhit, kasbiy faoliyat, do'stlar davrasi oiladan keyin muhim ahamiyat kasb etadi va bolalarning ijtimoiylashuvida salbiy yohud ijobiy jihatlarni keltirib chiqaradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, oilaning farovonligi juda ko'p omillarga bog'liq ekan. Jumladan oila farovonligini ta'minlashda tajribali, ko'pni ko'rgan o'taxon va onaxonlar o'giti, purma'no nasixatlari, ularning ibratli hayot tarzi ham muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan olganda, jamiyatda yuzaga kelayotgan yangi oilalarga ular turmushi ibrat bo'lsa, tajribasidan o'rganishsa, o'ylaymizki, oila yanada mustahkam va voyaga yetayotgan farzandlar tarbiyasi bo'ladi. Binobarin, oila qo'rg'oni ma'naviy yetuklik va boy tajriba asosida yanada mustahkamlanib boradi. Malumki, jamiyatning muhim bogini bolgan oilalar qanchalik tinch va totuv bolsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Shu jihatdan, oila qo'rg'onining mustahkamligi va unda manaviy jihatlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar kamolga yetadi, ulgayadi.

